Annotation. This article deals with the similarities and differences of Korean language while learning with the help of native language. A revival of interest in using a native language in the Korean classroom is caused by learners’ needs of improving language accuracy and clarity. This article aims at examining perceptions of the use of mother tongue and translation in various linguistic situations. The activities that help raise learners’ awareness of language use are described. The findings demonstrate that all learners need support of mother tongue in Korean classes, but the amount of the native language needed depends on students’ proficiency.

Keywords: learning Korean for Specific Purposes, learners’ perceptions**,** role of native language.

DOI: 10.36078/1653410384

The role of mother tongue in second language learning has been the subject of much debate and controversy. Most teachers feel that the use of L1 should be minimized and they feel guilty if they use it a lot. When challenged they find it difficult to say why. Against the use of L1, it is the general assumption that Korean should be learned through Korean, just as you learn your mother tongue using your mother tongue.[47] But the idea that the learner should learn Korean like a native speaker does, or tries to 'think in Korean', is an inappropriate and unachievable thought. The role of mother tongue in teaching and learning of Korean has been discussed in literature. The influence of mother tongue is proved both positive and negative in teaching and learning of Korean. A learner's L1 is an important determinant of Second Language Acquisition. The L1 is a resource which learners use both consciously and subconsciously to help them arrange and re-arrange the L2 data in the input and to perform as best as they can. The cultural features connected with L1 use can be put to good effect when teaching L2. Second language acquisition is a developmental process; L1 can be a contributing factor to it. This paper makes an attempt to understand the role of L1 in the teaching and learning of Korean and also reports on different methods, classroom management and some activities that could help them in learning Korean.

The state-of-the-art teaching of languages is based on the communicative method which emphasizes teaching English through English (Willis 1981). Still the idea of abandoning the native tongue is too stressful for many learners, who need a sense of security in the experience of learning a foreign language. In the past, the prevalence of grammar-translation method led to the extraordinary phenomenon: students were unable to speak fluently after having studied the language for a long time. For this reason, translation has been defined as “uncommunicative, boring, pointless, difficult, and irrelevant” (Duff 1994). Recently there has been a revival of interest in translation due to the shift of its emphasis – to using a mother tongue as a resource for the promotion of language learning. Translation develops three qualities essential to all language learning: accuracy, clarity, and flexibility (Duff 1994). Therefore,translation can serve as a tool for improving language skills.

[47] Dr. Manoj Kumar Yadav International Journal of Research (IJR) Vol-1, Issue-11 December 2014 ISSN 2348-6848 op P a g e | 572 Role of Mother Tongue in Second Language Learning

DOI: 10.36078/1653410384

First, it is important to find out what the students' perceptions of the use of native language are and if a mental translation in learning Korean for Specific Purposes (KSP) is relevant to learning and second, to describe the activities which raise learners' awareness of the second language use. It is assumed that comparing L1 and L2 through translation might help learners to activate language usage and serve as a tool to improve language skills.[48] Research methods employ the survey data ofstudents' perceptions of the amount of mother tongue they need in acquisition of professional language at tertiary level and mental translation in various class activities.

The use of the native language in the classroom settings can be an aid to language learning. The need for some translation in language learning is usually supported by non-native teachers. However, some native teachers of Korean argue that foreign language learning needs as much exposure to L2 as possible during precious classroom time, and any usage of L1 or translation is a waste of time. In the past, most methods in L2 language pedagogy dictated that L1 should be prohibited in the classroom. Communicative approaches to language learning in the 1970s and 1980s considered the use of L1 as undesirable. Recently the attitude to mother tongue and translation in language classes has undergone a positive change. Translation is sometimes referred to as the fifth language skill alongside the other four basic skills (listening, speaking, reading, writing): "Translation holds a special importance at an intermediate and advanced level: in the advanced or final stage of language teaching, translation from L1 to L2 and L2 to L1 is recognized as the fifth skill and the most important social skill since it promotes communication and understanding between strangers" (Ross 2000). However good the students are at understanding authentic reading or listening materials, the majority keeps mentally translating from L2 into L1 and vice versa. This fact makes teachers of foreign languages aware of the importance of translation in language classrooms. Why do students use their mother tongue in class? Numerous studies indicated that both negative and positive transfer between L1 and L2 was important for development of the inter-language, the complex system of the learners' L2. Many teachers recognize that L1 in the classroom is a positive representation of inter-language. The data on inter-language and language transfer show that it is highly probable that L2 learners will always think most often in their L1, even at the advanced

[48] Galina Kavaliauskienė et al. *Role of native language in learning English*

DOI: 10.36078/1653410384

level (Mahmoud 2006). Moreover, translation in L2 classroom offers a way to highlight similarities and differences between L1 and L2 forms. The translation is useful for L2 acquisition because, firstly, it uses authentic materials, secondly, it is interactive, thirdly, it is learner-centered, and finally it promotes learner autonomy (Mahmoud 2006).

Studies show that six to eight years of education in a language are necessary to develop the level of literacy and verbal proficiency required for academic achievement in secondary school. To retain their mother tongue, children whose first language is not the medium of instruction must have: Continued interaction with their family and community in their first language on increasingly complex topics that go beyond household matters; Ongoing formal instruction in their first language to develop reading and writing skills; and Exposure to positive parental attitudes to maintaining the mother tongue, both as a marker of cultural identity and for certain instrumental purposes (eg, success in the local economy or global trade). In addition, research increasingly shows that children‟s ability to learn a second or additional local language and an international language such as English, French, or German, does not suffer when their mother tongue is the primary language of instruction throughout primary school. Fluency and literacy in the mother tongue lay a cognitive and linguistic foundation for learning additional languages. When children receive formal instruction in their first language throughout primary school and then gradually transition to academic learning in the second language, they learn the second language quickly. If they continue to have opportunities to develop their first language skills in secondary school, they emerge as fully bilingual (or multilingual) learners.

The mother tongue can be probably more beneficial to beginners. As they progress in their learning the target language will take the lead. L1 can be time-saving: Instead of going through long explanations in the target language, it is sometimes easier and more efficient to give a translation of a vocabulary item or an explanation of a grammar point. Imagine a teacher who wants to teach the word “car” to French students and starts by phrasing the explanation as follows “a car is a road vehicle with an engine, four wheels, and seats for a small number of people” while a simple translation of the word (or perhaps the use of visual aids) would be enough.

The following conclusions have been drawn.

First, all the learners customarily rely on their mother tongue in learning English. Second, the amount of the native language that students need depends on their

 DOI: 10.36078/1653410384

proficiency and linguistic situations. The debate over the use of L1 in foreign language teaching hasn‟t been settled yet. On the one hand there are teachers who reject the use of L1 or fail to recognize any significant potential in it and on the other hand, there are those who massively overuse it. Both are abusing a resource of great importance. My view consists of using the target language as the medium of instruction when possible and switching to the mother tongue when it is really necessary. A rational and judicious use of L1 in EFL classes can only be advantageous. L1 use must be tuned up with effective target language teaching, taking into consideration the learners‟ mother tongue and cultural background and using them to the best of their interest.

References

1. Duff, A. 1994. Translation: Resource Books for Teachers. Edited by A. Maley. Oxford: Oxford University Press.
2. Mahmoud, A. 2006. “Translation and Foreign Language Reading Comprehension: A Neglected Didactic Procedure”, English Teaching Forum 44(4): 28–33.
3. Ross, N. J. 2000. “Interference and Intervention: Using Translation in the EFL Classroom”, Modern English Teache 9(3): 61–66.
4. Willis, J. 1981. Teaching English Through English. London: Longman.
5. Galina Kavaliauskienė et al. Role of native language in learning English Dr. Manoj Kumar Yadav International Journal of Research (IJR) Vol-1, Issue-11 December 2014 ISSN 2348-6848 op P a g e | 572 Role of Mother Tongue in Second Language Learning

KOREYS TILIDA NEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Ismatullayeva Iroda Xekmatullayevna
O‘qituvchi
Toshkent shahridagi Yoju texnika instituti

Annotation. This article focuses on the development of Korean language society in the current development process, the new stage of linguistics emerging with the

DOI: 10.36078/1653410384

needs of life, the new directions of neologisms, the main causes and factors of their emergence. The main goal of the article is to find out why the Korean language easily creates and adopts a large number of neologisms every year. Special attention is paid to the external and internal causes of neologisms in Korean. External factors are based on specific events and trends in the development of society that directly affect language, and internal causes include the study of a set of structural, morphological and other laws and principles of language structure. A dictionary of neologisms published in 2007 by the National Institute of the Korean Language, as well as materials from various periodicals of the country from 2017 to 2021, as well as neologisms used in the media were studied and analyzed.

Key words: neologization; neologism; adaptation; speech; hanmun.

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi rivojlanish jarayonida koreys tilida jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘layotgan tilshunoslikning yangi bosqichi, yangicha yo‘nalishi hisoblanadigan neologizmlar, ularning paydo bo‘lishining asosiy sabablari va omillariga alohida e’tibor qaratilgan. Bunda nima uchun koreys tili har yili juda ko‘p sonli neologizmlarni osongina yaratishi va qabul qilishi masalasini o‘rganish asosiy maqsad qilib olingan. Asosan, koreys tilida neologizmlarning paydo bo‘lishining tashqi va ichki sabablarini ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilgan. Tashqi omillarga tilga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan jamiyat taraqqiyotining maxsus hodisalari va tendentsiyalari asos qilib olinib, ichki sabablar sifatida esa til tuzilishining strukturaviy, morfologik va boshqa qonuniyatlari va tamoyillari majmuini o‘rganish masalasi kiritilgan. Koreya milliy universiti tomonidan 2007 yilda nashr etilgan neologizmlar lug‘ati, shuningdek, 2017-yildan 2021-yilga qadar mamlakatning turli davriy nashrlari materiallari hamda ommaviy axborot vositalarida foydalanilgan neologizmlarni o‘rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: neologizatsiya, neologism, moslashish, nutq, xanmun.

Til hamisha neogenez, ya’ni yangi narsalarni paydo qiladi. Til jamiyatda sodir bo‘layotgan har qanday o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirib, nafaqat shaxs, balki butun bir jamiyat tafakkurini shakllantiradi. Til odamlarni, ularning turmush tarzini va dunyo tasvirini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Atoqli nemis filologi Vilgelm fon Gumboldt insoniyat tili haqida fikr bildirar ekan, til va madaniyat bir butunlikni tashkil qiladi, deb aytib o‘tadi. Uning fikricha «til go‘yoki xalq ruhining tashqi ko‘rinishi

 DOI: 10.36078/1653410384

bo‘lib, xalqning qudrati va ruhiyati uning tilida aks etadi. Bu kabi narsani yana tasavvur qilish qiyin», deb ta’kidlab o‘tadi[49].

Leksika barcha ekstralingvistik o‘zgarishlarni aks ettirib, tilning eng harakatchan qismi hisoblanadi. Tilda har doim yangi shakllar paydo bo‘ladi, ba’zan so‘zlar yangi ma’noni anglatsa, ba’zida esa emotsional ekspressiv konnotatsiyalar paydo bo‘ladi, so‘zlar eskiradi yoki terminologik xususiyatini yo‘qotib muomaladan chiqib ketib neologizmlar umumiy so‘zlarga aylanadi.

Ushbu maqola koreys tilida juda ko‘p sonli neologizmlar paydo bo‘lishining ichki va tashqi sabablarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy maqsad esa koreys tilining neoplazmalarni juda oson va tez qabul qilishining sababini topish, shuningdek, undagi ushbu leksik birliklarning xususiyatlarini aniqlashdir.

Koreya hukumati 1992-yildan buyon neologizmlar sohasida juda ko‘p qayd va tasniflarni yuritib kelmoqda, bu esa ushbu til hodisaning naqadar muhimligini anglatadi. Koreys tiliga neologizmlarning kirib kelishi 1988-yilda Seulda bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlaridan keyin jadal suratda rivojlana boshladi. Chunki bu paytga kelib nafaqat Koreya Respublikasida, balki butun dunyoda jamiyatida barcha o‘zgarishlarga aynan til vositasida jonli munosabat ko‘rsatila boshlandi.

Neologizm (yun. neos – yangi, logos – so‘z) – jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlardir. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo‘lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o‘tgach, ular «yangilik» xususiyatini yo‘qotib, odatda, faol so‘zlar qatoriga o‘tadi. Masalan, o‘zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, qayta qurish, reyting, tender so‘zlari hozirgi kunda umumiste’moldagi so‘zlarga aylanmoqda. Tildagi umumiy neologizmlar bilan bir qatorda individual uslubiy yoki okkazional neologizmlar ham mavjud. Bunday neologizmlar mualliflar tomonidan ma’lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi[50].

Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo‘lish yo‘llari xilma-xil bo‘lib, ular tilning mavjud lug‘aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so‘z yasash yo‘li, shuningdek, mavjud so‘zning lug‘aviy ma’nolaridan birini yangi ma’noda qo‘llash yo‘li bilan va

[49] Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1984, С. 152

[50] https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar

DOI: 10.36078/1653410384

boshqa tildan so‘z qabul qilish orqali hosil qilinadi.[51] Rus tilshunosi O.S.Axmanova neologizm atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: «Yangi (ilgari noma’lum) predmetni bildirish yoki yangi tushunchani ifodalash uchun yaratilgan (paydo bo‘lgan) so‘z yoki ibora»[52].

Neologizatsiya jarayonida ikki guruh omillar ishtirok etadi – tashqi va ichki. Tilga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan jamiyat taraqqiyotidagi alohida hodisa va tendentsiyalar tashqi omillar bo‘lib, ichki omillar esa - til tuzilishining strukturaviy, morfologik va boshqa qonuniyatlari va tamoyillari majmui sifatida neologizmlarning paydo bo‘lishiga ko‘proq yoki kamroq moyil bo‘lishiga imkon beradi. Koreys tilida har yili juda ko‘p sonli neologizmlar paydo bo‘ladi, bu esa tilda yangi so‘zlarni juda oson yaratadi va qabul qiladi, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Neologizmlarning shakllanishiga yordam beradigan tashqi omillari shundan iboratki, yangi so‘zlarni tarqatish va yaratishda ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular jamiyatdagi eng kichik o‘zgarishlarga ham faol munosabatda bo‘ladi. Aynan ular mamlakatdagi va dunyodagi siyosiy, madaniy voqeliklar, ijtimoiy va tabiiy ofatlarni aks ettirib, jamiyatning ajralmas qismi sifatida muloqotning amaliy maqsadlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, neologizmlarning paydo bo‘lishiga yordam beruvchi tashqi omillar jamiyatda sodir bo‘layotgan turli jarayonlar va o‘zgarishlar, xalqaro voqealar, moda, obro‘-e’tibor, shuningdek, texnikaning jadal rivojlanishi, fan yutuqlarini joriy etishni o‘z ichiga oladigan oav, degan xulosaga kelish mumkin.

Ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy nutq bilan bog‘liq yangi so‘zlar doimiy ravishda paydo bo‘ladi, bu koreys xalqining turmush tarzida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aks ettiradi. Masalan: «**노모어엉클족**» (no more uncle) yoki «**노무족**» (NOMU (No More Uncle)) birliklari. Bu leksik birliklar jamiyatning izchil rivojlanishidan kelib chiqib, zamonaviy koreys jamiyatida modaga ergashadigan, o‘zlariga g‘amxo‘rlik qiladigan va faol hayot tarzini olib boradigan 40-50 yoshdagi erkak kishiga ishora qiladigan lisoniy birlikdir.[53]

Neologizmlardan foydalanishning pragmatik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular bir qator muhim vazifalar – nominativ, evfemistik, leksik vositalarni tejash funktsiyasi va

[51] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. T.: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2000.

[52] Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская энциклопедия, 1966. 254 с.

[53] https://kin.naver.com/qna/detail.naver?d1id=6&dirId=613&docId=48827914&qb=64W466y07KGx&enc=utf8&section=kin&rank=1&search_sort=0&spq=0

DOI: 10.36078/1653410384

boshqalarni bajaradi. Ular orasida o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish funktsiyasi yaqqol ajralib turib, yosh avlod uchun neologizmlar fikrini ifoda etishning eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Neologizmlarning qulayligi shundaki, ular biron bir tasvirga, shaxsga, boshqa leksik birlikka ishora qilib o‘zida har doim rang-barang kontrastni olib yuradi, bu ularga u yoki bu ma’lumotni idrok etishga samarali ta’sir qilish imkonini beradi.

«**나우족**» (New Older Women) «40-50 yoshlardagi boy, mustaqil ayol». «**족**» «Oila, qabila» ma’nosini ifodalovchi affiks yuqoridagi ikki misolda alohida e’tiborga loyiqdir. Uning mavjudligi alohida guruhlarga maxsus xususiyatlarga ega bo‘lgan birlashish tendentsiyasini ko‘rsatadi. Bu esa tilda, jumladan, neologizmlarda jamoaviylikni aks ettirish ham mumkinligini isbotlaydi.

Neologizmlarning paydo bo‘lishiga bir necha omillarlar sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, turli sport musobaqalari, xalqaro global muammolar va h.k. Bunday neologizmlar tasnifiga ishsizlik muammosi bilan bog‘liq og‘ir vaziyat fonida paydo bo‘lgan «**오륙도**» va «**사오정**» so‘zlarini kiritish mumkin. Mamlakatda o‘qishni tugatgandan yoki pensiyaga chiqqandan so‘ng ish topish qiyinligi masalasini ifodalaydigan «**오륙도**» birligi Busan yaqinidagi orollar guruhi nomidan kelib chiqqan. Ob-havo sharoitiga qarab, ulardan besh yoki oltitasi ko‘ringanligi sababli ish topish muammosi aynan shunday nomlangan. Bu holatda so‘z yakunidagi «orol» ma’nosini ifodalovchi «**도**» iyeroglifi bilan «o‘g‘irlik» ma’nosini ifodalovchi «**도**» belgisini o‘zaro almashtirish orqali yangi neologizm paydo bo‘lgan. Ma’nosi «kelajakni o‘g‘irlash».

«**사오정**» birligi neologizm dastlab xitoylik yozuvchi Vu Chengenning «G‘arbga sayohat» romanidagi qahramonning nomi bo‘lib, aynan 45 yoshlarida ishsizlik muammosiga duch kelgan shaxs tasviridir. Shu sababli «**사오정**» so‘zi ham yangi ma’noda «45 yoshda nafaqaga chiqish» ma’nosini ifodalaydi. Ushbu misollarda ko‘plab koreys hazillarida namoyon bo‘ladigan harakter- ish toppish muammosini ko‘rish mumkin.

Koreya yarim orolini ikki davlatga bo‘luvchi 38-parallel, ya’ni chegara chizig‘i asosida paydo bo‘lgan «**삼팔선**» neologizmi ham shartli ravishda 38 yoshga to‘lgandan so‘ng, xodimlar yangi ish topish haqida o‘ylashlari kerak bo‘lgan vaziyatni anglatuvchi neologizm bo‘lib, ish beruvchilar o‘z jamoalarini doimiy ravishda yangilab, yosh xodimlarni jalb qilishlik holatini anglatadi. Shuni alohida ta’kidlash

DOI: 10.36078/1653410384

kerakki, neologizmlarda aynan provokatsion atamalar tanlab olingan bo‘lib, u doimo odamlarning e’tiborini tortadi, chunki jamiyatda tabaqalashish mavzusi doimo mavjud.

Neologizmlar shuningdek kompyuter texnologiyalari, telekommunikatsiyalar va internet sohasiga ham jadal kirib borgan. Quyida ularning bir nechtasiga izoh berilgan.

«**네파라치**» (netizen + paparazzi) – «mashhurlarning shaxsiy hayoti haqida ma’lumot joylashtirgan internet foydalanuvchisi».

«**댓파라치**» (**댓글**+**파파라치**): paparazzi) – «internetga salbiy sharhlar joylashtirish».

«**디지털 치매**» – «elektron gadjetlarga to‘liq qaramlik natijasida xotira, aqliy arifmetika va hokazolarning yomonlashishi».

Bo‘sh vaqt, sport va kino sohasidagi neologizmlar ham e’tiborga loyiqdir, chunki so‘nggi yillarda bu sohalar juda faol rivojlanishi natijasida yangi lug‘at bilan boyib bormoqda.

«**김치우드**» (**김치**+Hollywood) Janubiy Koreya kino sanoati degan ma’noni anglatib, semantik nuqtai nazardan, bu so‘z mamlakatda ushbu sohaning ommaviyligi va faol rivojlanishi natijasida paydo bo‘lgan.

«**먹토**» – «shanba kuni uydan tashqarida ovqatlanish».

«**노블리안 레저족**» – «bo‘sh vaqt, sport va hokazolarga ko‘p pul sarflanadigan ijtimoiy hodisa».

Maqolada neologizmlarning paydo bo‘lishiga yordam beruvchi tashqi omillarni ko‘rib chiqildi. Biroq, har qanday tilga ma’lum bo‘lgan ijtimoiy omillar til taraqqiyotiga ta’sir qiladi va har qanday jamiyatda o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ammo har bir til ham juda ko‘p neologizmlarning paydo bo‘lishida reaksiyaga kirishmaydi, natijada neologizmlar lug‘atlari doimiy ravishda yangilanmaydi. Shunday qilib, bu ularning paydo bo‘lishining ichki sabablari ham bor, degan xulosaga kelishga sabab bo‘ladi.

Ushbu masalani tushunish uchun ba’zi neologizmlarning tarkibiy tahliliga murojat qilinadi.

Neologizmlarning katta foizini fonetik o‘zlashuvlar yoki ularning elementlari, asosan, ingliz tilidan so‘zlarning kirib kelishi holati tashkil etadi. Ko‘pgina neologizmlar tilga ekstralingvistik voqelik, yangi tushunchalar bilan to‘ldirilishi tufayli kirib keladi. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin.

«**스카이서핑**» (sky surfing) – skaysyorfing.

DOI: 10.36078/1653410384

«**실버폰**» (silver phone) keksalar uchun telefon.

Koreys tilidagi fonetik moslashuvlarning ommaviyligi (ya'ni ingliz tilidagi so'zlarni koreyscha talafuz qilish)ga qaramasdan, ingliz tilidagi so'zlar koreys leksemasining an'anaviy tuzilishi uchun juda uzun hisoblanadi. Shuning uchun affiksatsiya holati ko'p kuzatiladi.

Koreys tilida morfologik-sintaktik usul komponentlarning barcha qismlarida bir so'zni ajratib ko'rsatish orqali ko'p komponentli bog'lanishlar yoki sintaksis birikmalarining qisqarishi holatiga ko'p duch kelish mumkin. Bu misollarda koreys neologizmlarining me'yordan chetga chiqish, ya'ni semantik yoki shakl jihatidan mos kelmaydigan elementlarni birlashtirish (masalan, chet tilidan o'zlashtirish va mahalliy koreys elementi) holatlariga misollar keltirilgan. Masalan:

«**컴맹**» – «kompyuterdan foydalanishni bilmagan odam»
(**컴퓨터** + **맹** «ko'r, hech narsada savodsiz») – chet tilidan o'zlashtirish va mahalliy koreys elementi.

«**디찍병**» «hamma narsani suratga olishga qaramlik» (**디카** digital camera + **찍다** «suratga olish», **병** «kasallik») – koreys tilidagi fe'lning o'zagi chet tilidan so'zni o'zlashtirish va ieroglif elementi bilan birlashtirilgan.

«**재디자인화하다**» «qayta ishlab chiqish» (**재** + **디자인** + **화** + **하다**) chet tilidan so'zni o'zlashtirish, xitoycha morfemalar va mahalliy koreys fe'li bilan birlashtirilgan.

엄카 «onaning kredit kartasi» (**엄마** + **신용카드**) – chet tilidan o'zlashtirish va mahalliy koreys elementi.

멘붕 «miya sinishi» (**멘탈** + **붕과**) ingliz tilidagi so'z xitoy tilidagi morfemalar bilan birlashtirilgan.

몰카 «yashirin kamera» (**몰래 카메라**) ingliz tilidagi so'z va mahalliy koreys elementi.

«**낙바생**» «Ish topishda qiynalayotgan talaba» (igna teshidan o'tishga urinayotgan tuya bilan misoli bilan berilgan).

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, koreys tili neologizmlarni juda oson qabul qiladi va yaratadi. Ularda jamiyatdagi «jamoa» o'zligini namoyon qilishi orqali odamlar hayotiga ta'sir qiladigan eng muhim jarayonlar va hodisalarni ko'rsatadi.

DOI: 10.36078/1653410384

Bunda yangi texnologiyalarning joriy etilishi, ijtimoiy taraqqiyot, globallashuv va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Koreys tili qadimiy ekanligi, unda bir vaqtning o‘zida ham hanmun ham ierogliflarning qo‘llanishiga qaramay bu til yangi neologizmlarni tez va oson qabul qilishini ko‘rish mumkin. Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, neologizatsiya jarayonida koreys tili inglizcha so‘zlarning fonetik moslashuvini oson qabul qiladi, bu ko‘pincha qo‘shma so‘zlarni yaratish yoki qisqartmalar hosil bo‘lishi bilan kechadi. Neologizmlarni yaratishda hanmun elementi ham faol rol o‘ynab, o‘zining nufuzini saqlagan holda boshqa hanmun elementi bilan ham osonlik bilan birlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Maxmudov N.M. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. T.: O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. № 5.
2. Rixsiyeva G., Usmanova Sh., Madaniyatlararo muloqot. T.: ToshDShI, 2018.
3. Usmanova Sh. Tarjimaning lingomadaniy aspektlari. Darslik. T.: ToshDShI, 2017.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. T.: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti , 2000.
5. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская энциклопедия, 1966. 608 с.
6. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1984. 400с
7. Жеребило Т. В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. Назрань: Пилигрим, 2010. 486 с.
8. Лопатин В. В. Рождение слова. Неологизмы и окказиональные образования. М.: 1973. 152 с.
9. Намитокова Р. Ю. Авторские неологизмы: словообразовательный аспект. Ростов-н/Д : Изд-во Ростов. ун-та, 1986. 253 с.
10. Пакулова Я. Е. Корейские неологизмы XXI века, генетически восходящие к китайским корням // Филологические науки в МГИМО. № 24 (39). М.: МГИМО(У) МИД России, 2006. С. 122–130.
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar
12. https://blog.naver.com/richungcy/222608509189?isInf=true
13.https://kin.naver.com/qna/detail.naver?d1id=6&dirId=613&docId=48827914&qb=64W466y07KGx&enc=utf8&section=kin&rank=1&search_sort=0&spq=0

DOI: 10.36078/1653410384

KOREYS TILIDA BOSH KELISHIKNING GRAMMATIK MA’NOSI

Jaloliddinova Madina Sirojiddin qizi
Lingvistika: koreys tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. This article explores the grammatical meaning of the main consonant in Korean. Review of linguistic and semantic tools that give meaning to existing agreements in Korean. To consider the compatibility of semantic linguistic and extralinguistic means, which give the meaning of existing agreements in Korean, with existing means in Uzbek.

Keywords: Korean language, consonant, consonant, semantics, linguistics, media.

Annotatsiya. Ushbu maqola koreys tilida ushbu maqola koreys tilida bosh kelishikning grammatik ma’nosi o‘rganadi. Koreys tilidagi mavjud kelishiklarning ma’nosini beruvchi lingvistik va semantik vositalarni ko‘rib chiqish. Koreys tilidagi mavjud kelishiklarning ma’nosini beruvchi sematik lingvistik va ekstralingvistik vositalarning o‘zbek tilidagi mavjud vositalar bilan mos kelishini ko‘rib chiqish.

Kalit so‘zlar: Koreys tili, kelishik, bosh kelishik, semantika, tilshunoslik, ommaviy axborot vositalari.

Kelishik ot yoki otlashgan so‘zning boshqa so‘zlar bilan aloqasini ko‘rsatuvchi grammatik shakl. U ot shakli ekanligi holda, birikma yoki gap tarkibida uning boshqa so‘zga tobelanishini ko‘rsatadi. Bu sintaktik munosabat kelishik shaklining o‘zi bilann, ko‘makchi yoki ko‘makchi vazifasidagi so‘z bilan birga ifoda topishi ham mumkin.

Kelishik miqdori turli tilda har xil. Koreys tilida ham oltita kelishik bo‘lib, ular bosh (shaklsiz), qaratqich (shakli ning), tushum (shakli -ni), junalish (shakli ga -ka -qa), o‘rin (shakli -da), chiqish (shakli -dan) kelishiklaridan iborat. Shulardan qaratqich kelishigi ot tomonidan boshqarilib, hokim so‘z egalik qo‘shimchasini olib keladi: kitobning varag‘i. Qolgan tushum, jo‘nalish, o‘rin, chiqish kelishikli otlar fe’l yoki sifat tomonidan boshqariladi: kitobni varaqladi, kitobga qaradi, kitobda yozilgan, kitobdan olindi.

DOI: 10.36078/1653410384

Bosh kelishik shaxsni, predmetni, narsa-hodisani nomini atab kim? nima? so‘roqlariga javob bo‘ladi Bosh kelishikdagi so‘z boshqa so‘zlarga hokim bo‘lganligi sababli, gapda ega bo‘lib keladi.

- Dadam bilan oyim gapiraveradi.
- Zum o‘tmay eshik ochildi.
- va b) misollarda kim? nima? so‘roqlariga javob bo‘luvchi “dadam”,” oyim” va “eshik” so‘zlari bosh kelishik shaklida kelgan.

Koreys tilida bosh kelishik bir gapning egalik qismiga qo‘shiladigan qo‘shimcha hisoblanib,**주격조사** deb ataladi.Bosh kelishik qo‘shimchasi ikki xil ya’ni **-이** va-**가** ko‘rinishida bo‘lib, ular qo‘llanish o‘rniga qarab farqlanadi. -이 so‘z oxiri undosh harf bilan yakunlanganda, -가 esa unli harf bilan yakunlanganda so‘z so‘ngiga qo‘shiladi.

a.여기는눈**이**많다.

Bu yerda qor ko‘p.

사람들은시간**이**지나가는것을여러가지말로비유한다.

Insonlar vaqt o‘tishini turli gaplar bilan ifodalashadi.

b.일분일초**가**급한데퇴근이라니.

1daqiqa kam bo‘lsada, keta olamiz.

누구든지자기**가**세운계획대로살수잇다고하면얼마나좋을가?

Har kim o‘zi tuzgan rejalar asosida yashasa qanchalar yaxshi!

Yuqorida keltirilgan a) misolda bosh kelishik qo‘shimchasi -이 undosh harf bilan tugagan so‘zga qo‘shilgan bo‘lsa, b) misolda unli harf bilan yakunlangan so‘zga -가 qo‘shimchasi birikib kelganini va u birikib kelgan so‘z ega vazifasida kelayotganini ko‘ramiz.

Ushbu qo‘shimchalarning tarixiga e’tibor bersak, -이 qo‘shimchasi ancha oldinroq shakllanib qo‘llangan bo‘lsa, -가 qo‘shimchasi nisbatan keyinroq, ya’ni XVI asrda paydo bo‘lib, muomalaga kiritilgan.

DOI: 10.36078/1653410384

(a)한밤중에이상한일**이**이러났다.

Bir kechada g‘aroyib ishlar sodir bo‘ldi.

(b)여우**가**그렇게말했습니다.

Tulki shunday debdi.

Bosh kelishikning gapda qo‘llanishi.

1. Bosh kelishikning ot so‘z turkumiga birikishi:

a) 오늘본시험**이**너무어려웠어요.

Bugungi imtihonim juda qiyin edi.

b) 친구**가**도아주었다고요?

Do‘sting yordam so‘radimi?

Yuqoridagi a) va b) misollarda bosh kelishik birlikdagi turdosh otlar bilan kelgan. Bundan tashqari bosh kelishik atoqli va ko‘plikdagi otlar bilan ham qo‘llanadi.

a) 아들이사과를많이먹었다.

Bolalar ko‘p olma yeyishdi.

b) 쑤미가끝까지참았다.

Sumi oxirigacha chidadi.

2. Bosh kelishikning olmosh bilan qo‘llanishi:

a) 어디**가**마음에들면앉을수있어요

Qayer yoqsa o‘sha yerda o‘tirishingiz mumkin.

Yuqoridaboshkelishikso‘roqolmoshigaqo‘shilibkelgan.Suhbatjarayonidaso‘roqolmoshigajavobbo‘luvchiso‘zgahamboshkelishikbirikadi.

Masalan:

가: 모두몇이떠납니까? A: Necha kishi ketdi?

나: 둘이떠납니다. B: Ikkovi ham ketdi.

a) 모두**가**이말을알아들었다.

Hamma bu gapni tushundi.

DOI: 10.36078/1653410384

b) 여기**가**우리집아니다.

Bu bizning uy emas.

Yuqoridagi misollarda bosh kelishikning so‘roq va ko‘rsatish olmoshlariga birikib kelganini kuzatdik.. Shuningdek, bosh kelishik kishilik olmoshlariga ham qo‘shiladi.Ammo, ba’zi olmoshlarga qo‘shilganda so‘z tarkibida o‘zgarish bo‘ladi. Ya’ni, “누구” - “kim?” olmoshiga -가 qo‘shilsa, “누가” tarzida, “너”–“sen”, “나”–“men” olmoshlari esa “네가”, “내가” tarzida o‘qiladi va yoziladi:

a) 이번에는누가이겼어요?

Bu safar kim g‘olib bo‘ldi?

b) 네가이일을했니?

Bu ishni sen qildingmi?

c) 다음에는내가출장을가기로했다.

Keyingi safar men ham borishga qaror qildim.

1. Bosh kelishikning faqat ot va olmosh so‘z turkumiga mansub so‘zlariga emas, son so‘z turkumiga xos sanoq, hisob va tartib so‘zlariga ham birikadi:

a) 한국에온지벌써한해가지났어요.

Koreyaga kelganimga endi bir yil bo‘lgandi.

b) 주머니에사탕세개가있었어요.

Cho‘ntagimda uchta konfet bor edi.

a) 첫째가»복»라는오래사는것이다.

Birinchidan,baxt uzoq umr ko‘rishdir.

b) 방에서두사람이앉아있었다.

Xonada ikki kishi o‘tirgan edi.

1. Majhul nisbat shaklidagi fe’lga birikuvchi egaga qo‘shiladi:

a) 사과**가**다팔렸다.

Olmaning hammasi sotildi.

DOI: 10.36078/1653410384

b) 여자의울음소리**가**멀리에서들렸다.

Uzoqdan qizning yig‘i ovozi eshitildi.

c) 멀리바다**가**보인다.

Uzoqdan dengiz ko‘rindi.

2. Qo‘shma gaplar tarkibidagi egaga birikadi:

a) 비가오면우리도가지않겠다.

Yomg‘ir yog‘sa, biz ham bormaymiz.

b) 사람이많으면이일이더빨리끝내질수있었다.

Odam ko‘proq bo‘lganda, bu ish tezroq tugashi mumkin edi.

Shunday qilib, koreys tilidagi kelishiklar uning turlari va bosh kelishikning xususiyatlarini o‘rganish til o‘rganishning muhim hususiyatlaridan biridir. Koreys tilidagi kelishiklar tushunchalar bilan birga keladi. Bunga tilning istalgan tushunchasini aniq yoki batafsil yetkazib berishi, uning turli xil so‘zlarga qo‘shilishi bilan uning semantik ma’nolarini farqlashi, so‘zning semantik tuzilishini soddalashtirishi kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik. T.: Tasvir 2021.
2. Boltayeva G. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: Navoiy 2009.
3. Jo In Hwa. Koreys tili grammatika lug‘ati. – T.: KOICA 2011.
4. Jaloliddinova M., Koreys tilida ravishlarning semantik xususiyatlari. T.: Tadqiqotchi 2022.
5. Jaloliddionva M.,Ta’lim tizimida sun’iy intellektning o‘rni va vazilarari T.: Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari ilmiy jurnali 32-37 bet.
6. **이정명**, **바람의화원**, –**서울**. –2014.
7. **이정명**, **뿌리깊은나무**, –**서울**. –2014.
8. **이정명**, **뿌리깊은나무**, –**서울**. –2014
9. **박종화**, **임진왜란**, –**서울**. –2014.

DOI: 10.36078/1653410384

«QUM» KONSEPTI VA UNING RANG ORQALI IFODALANILISHI (KOBE ABENING «QUMDAGI XOTIN» ROMANI MISOLIDA)

Kayumkhodjayeva Shakhnoza
Katta o‘qituvchi
Sharq filologiyasi fakulteti
Yapon tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi

Annotation. All colors have the meanings of images, ideas or concepts. Abe Kobo used simple, dark, and dull colors, not bright, light ones in his novel, which is named as The Woman in the Sand. The colors in the novel have indirect meanings, but they are appropriate. The color that is described in the novel, is the masterpiece of the art and revealed the concept of «sand».

Keywords: The concept of sand, «Woman in the Sand», primary colors, complementary colors, light colors, dark colors.

Annotatsiya. Badiiy asardagi barcha ranglar ma’no-mazmun, obrazlar, g‘oya yoki konseptni ifodalashga hizmat qiluvchi vositadalardan biri. Abe Koboning «Qumdagi xotin» romanida yorqin, och ranglar emas, oddiy, to‘q, xira ranglar ishlatilgan. Asarda ranglar berilishi to‘g‘ridan- to‘g‘ri bo‘lmay, ularni berilishiga nisbiy qaralgan. Asar markazida yotgan obrazni ranglar tasvirlab berib, «qum» konseptini ochib berishga hizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Qum konsepti, «Qumdagi xotin», asosiy ranglar, qo‘shimcha ranglar, och rang, to‘q rang.

E.S. Kubryakova va boshqalar «Qisqacha kognitiv terminlar lug‘ati»ga ko‘ra konsept – bir millatga tegishli bo‘lgan hayotiy tajriba natijalarini o‘zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yeg‘indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo‘lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o‘y-fikrlar, qarashlarini o‘zida mujasamlashtirgan termin dep ko‘rsatadi.

DOI: 10.36078/1653410384

Qum bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarrachalardan tashkil topgan cho‘kindi tog‘ jinsi.[54]

Qumning xususiyati uni konsept sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Adabiyotda qum va uning obrazi doimo hayot yo‘lida inson cheksiz yolg‘izligini ifodalagan.

Badiiy asardagi barcha ranglar ma’no-mazmun, obrazlar, g‘oya yoki konseptni ifodalashga hizmat qiluvchi vositadalardan biri. Shuning uchun asardagi ranglar o‘z-o‘zidan berilmaydi. Har bir rang odiiy rang, ma’daniy belgi yoki obraz ma’nosida keladi. Badiiy asardagi ranglar yeg‘indisi to‘liq asar markazida yotuvchi, muallif o‘quvchiga ochib bermoqchi bo‘lgan g‘oyani ifodalashga hizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, romanda aks etgan ranglar yeg‘indisi talqini kognitiv tahlilni talab etadi. Asar markazida yotgan obrazni ranglar tasvirlab berib, «qum» konseptini ochib berishga hizmat qilgan ranglarni ikki qatlam asosida ko‘rishimiz mumkin. Birinchi qatlamda muallif nuqtai nazari orqali qaralganda rang berilgan bo‘lsa, ikkinchi qatlamda tabiatga qaratilgan holda ranglar berilgan.

Asardagi ranglarni ko‘rib chiqishdan avval, til birligida mavjud bo‘lgan lug‘atdagi ranglarni ko‘rib chiqamiz.

西尾実　岩淵悦太郎　岩波国語辞典、日本　岩波書店、1963 «Nishio Minoru, Niwanuchietsu Tarou. Iwaha Kokugo jiten».Nihon Iwaha shyouten,1963 - «Nishio Minoru, Niwanuchietsu Tarou. Izohli lug‘at». Iwaha nashiryoti,1963 ga ko‘ra yapon tilida o‘n ikkta asosiy ranglar mavjud bo‘lib, bularga quyidagilar kiradi.

1.ao 青 ko‘k 2. aка; 赤 qizil; 3.chairo 茶色 jigarrang; 4.daidaiiro 橙色 olovrang 5.haiiro 灰色 kulrang ; 6.kiiro 黄色 sariq ; 7.kuro 黒 qora ;8.midori 绿 yashil 9. mizuiro 水色havorang ;10.momoiro 桃色pushti (shaftoli rangiga qarab)11.murasaki 紫 binafsharang ;12.shiro 白 oq[55]

[54]西尾実　岩淵悦太郎　岩波国語辞典、日本　岩波書店,1963 [Nishio Minoru, Niwanuchietsu Tarou. Iwaha Kokugo jiten.Nihon Iwaha shyouten, 1963] -“ Nishio Minoru, Niwanuchietsu Tarou. Qomusiy lug’at. Yaponiya Iwaha nashiryoti,1963”

[55] Satou Isamu Kodansya yaponsko-russkiy slovar. Yaponiya Kodansya Tokio,1981

DOI: 10.36078/1653410384

O‘n ikkita rangdan yettita rang (ko‘k, qizil, olovrang, sariq, qora, binafsharang va oq) ni o‘zini alohida nomlanishi mavjud bo‘lib, beshta rang (jigarrang-choy rangiga qarab) kulrang-kul rangiga qarab, yashil-ko‘katlar rangiga qarab, havo rang-suv rangiga qarab, pushti-shaftoli rangiga qarab) biror bir narsaga o‘xshatish orqali nomlangan. Romanni o‘rganish jarayonida qirq ikkta ranglarni ifodalagan so‘zlar keldi. Ikki manbani solishtirish natijasida lug‘atdagi asosiy ranglardan tashqari bunga qo‘shimcha yana o‘ttizta ranglarni ham kelishi kuzatildi. Asosiy ranglar matnda yana turli xil darajalarda kelgan. Asarda ifodasini topgan ranglarni ikki holatga ko‘ra tahlil qilishimiz mumkin. Birinchi holatga ko‘ra «Qumdagi xotin» romanidagi ranglar nimagadir o‘xshatish orqali berilgan.

1. tabiat rangiga qarab:

a. osmon rangi (ko‘m-ko‘k, ko‘kish, havorang, moviyrang, tiniqrang, ochiq moviy)

b. quyosh rangi (to‘q sariq, qizg‘ish, qizil)

c. daraxt rangi (och yashil, xira yashil)

d. cho‘l rangi (sarg‘ish, bo‘z rangi, jigarrang)

e. qum rangi (sariq, ochrang,qum rangi, oqish yaltiroq)

2. fasllar rangiga qarab

a.yoz fasli (yashil)

b.avgust: havorang; sentabr: to‘q qizil, qo‘ng‘ir rangi, qip-qizil; oktabr: ko‘kish, kulrang

3. tabiiy narsalarga

a. oltin rangi (oltin rangi)

b. qo‘rg‘oshin rangi (qo‘rg‘oshin rangi)

c. kumush rangi (kumush rangi)

d. g‘isht rangi (g‘isht rangi)

e. chig‘anoq (oppoq, yupqarang, oqish,oq)

f. siyox (eski siyox rangi)

4. hayvon va hashorat, qush rangiga qarab

a. toshbaqa (toshbaqa kosasi rang)

b. qarg‘a (qoramtir yashil, qop-qora)

c. pashsha (qoramtir, qora)

5. oziq-ovqat rangiga qarab

a. sut rangi (sut rangi)

DOI: 10.36078/1653410384

b. suv rangi (shaffofrang)

c. qahva rangi (qahva rangi)

Ranglar nafaqat tabiatga asoslangan bo‘lishi, balki ikkinchi holatga ko‘ra qahramon ichki his tuyg‘ulari, kechinmalari, hayotga bo‘lgan munosabatini o‘zida ifodalagan qum konseptini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Asarda uchragan qizg‘ish, qoramtir, to‘q havorang, ochrang, xirarang, to‘q sariq, sarg ish, oppoq, oqish, xira yashil, och yashil, to‘q yashil, ko‘m-ko‘k, ko‘kish ranglari qahramonning a.jismoniy; b.axloqiy; c. ruhiy ichki his tuyg‘ularidan kelib chiqib ifoda etilgan.

Ranglar insonning kunning qaysi qismida ko‘rishga ham bog‘liq. Masalan, bitta rang quyosh tushish vaqtida boshqacha, kechqurun esa boshqa rang bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Asarda kelgan oq rangini oq, oppoq, oqish yaltiroq, oqish darajalari shu holatga ham bog‘liq deb aytish mimkin.

Xulosa qilib, Abe Koboning «Qumdagi xotin» romanida yorqin, och ranglar emas, oddiy, to‘q, xira ranglar ishlatilgan.Asarda ranglar berilishi to‘g‘ridan- to‘g‘ri bo‘lmay, ularni berilishiga nisbiy qaralgan. Bu birinchidan matnda yotuvchi markaziy qum obraziga- yolg‘izlik konseptiga, ikkinchidan tabiatga, uchinchidan qahramon ruhiy his tuyg‘ulariga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kobo A. Qumdagi xotin T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1968.

2. 西尾実　岩淵悦太郎　岩波国語辞典、日本　岩波書店,1963 «Nishio Minoru, Niwanuchietsu Tarou. Iwaha Kokugo jiten».Nihon Iwaha shyouten,1963- «Nishio Minoru, Niwanuchietsu Tarou. Izohli lug‘at». Yaponiya Iwaha nashiryoti,1963

3. Satou Isamu Kodansya yaponsko-russkiy slovar. Yaponiya Kodansya Tokio,1981

4. 吉岡幸雄　日本の色辞典　日本 Inc 社,2000 «Yoshioka Yukio Nihon jiten» Nihon Inc shya,2000 - «Yoshioka Yukio Yaponcha rang lug‘ati».Yaponiya Inc.nashiryoti, 2000

DOI: 10.36078/1653410384

SHARQ TILLARI – TILLAR KO‘ZGUSI

Mahmudov Muzaffar
Sharq filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. The main idea of this article is to highlight the role and importance of Oriental languages today. Provide general information to language learns in Chinese, Korean, Japanese. Introduce and implement innovations for the development of the industry.

Keywords: Korean, Japanese, Chinese languages.

Annotatsiya. Mazkur maqolaning asosiy g‘oyasi – sharq tillarini bugungi kundagi o‘rni va ahamiyatini yoritib berish. Til o‘rganuvchilarga xitoy, koreys, yapon tillari bo‘yicha umumiy ma’lumotlarni berish. Soha rivoji uchun yangiliklar kiritish va amalda tatbiq etish.

Kalit so‘zlar: koreys, Yapon, Xitoy tillari.

Yurtimizda xorijiy tillarga, xususan, sharq tillariga e’tibor yildan yilga ortib bormoqda. Xitoy, koreys, yapon tillarini o‘rganuvchi yoshlar soni ko‘paymoqda. Barchamizga ma’lumki, iqtisodiyoti, madaniyati va boshqa sohalarida Xitoy, Koreya, Yaponiyaning o‘rni beqiyos. Bu davlatlardan jahonning boshqa mamlakatlariga juda ko‘p mahsulotlar eksport qilinadi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek chet el tajribasini o‘zlashtirishda va uni tatbiq qilishda nafaqat g‘arb tillarini, balki sharq (xitoy, koreys, yapon) tillarini o‘rganish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Hukumatimiz tomonidan mazkur davlatlar bilan aloqalar kengaytirilmoqda. Dunyodagi yetakchi mamlakatlarning so‘nggi yillardagi yuksalish xususiyatlari iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalardagi taraqqiyot Osiyoga – Sharq zaminiga ko‘chayotganini ko‘rsatyapti. Jahon geosiyosiy sahnasida ham bu mintaqa mamlakatlarining ta‘siri tobora ortmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi globallashuv jarayoni Sharq va G’arb madaniyatini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ular o‘rtasida qadimdan mavjud bo‘lgan o‘zaro ta‘sir, hamkorlik va ma‘naviy-madaniy boyish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu ikki mintaqadagi davlatlar va ularning tilini puxta o‘rganishni talab etmoqda. Xitoy, koreys, yapon tillari dunyodagi o‘rganish

 DOI: 10.36078/1653410384

eng qiyin tillar sirasiga kiradi. Mazkur tillarning g‘arb tillariga qaraganda eng asosiy farqli jihati bu o‘z alifbosi, iyeroglifi va yozish qoidalariga ega ekanligidir. Davlat va jamiyat rivoji uchun sharqshunos olimlar, filologlar, tarjimonlar, tilshunoslar va shu tillar bo‘yicha mutaxasislar mazkur tillarni o‘rganishda yanada qulay va samarali usullrni, yangi metodlarni o‘ylab topishlari darkor. Sababi shu tillar bo‘yicha yosh talabalar va o‘rganuvchilar boshqa tillarga qaraganda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Hatto bazilarining shu tillar bo‘yicha boshlang‘ich darajaning o‘zida qiziqishlari so‘nib bormoqda. Shu sohadagi til mutaxasislari yosh o‘rganuvchilarimiz uchun yangi qo‘llanmalar, kitoblar, elektron darsliklar va boshqa ko‘plab samarali usullarni o‘ylab topishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar shunday yangiliklar tatbiq etilsa va maktablarimizda nafaqat g‘arb tillari balki xitoy, koreys, yapon va boshqa sharq tillariga ham yanada jiddiyroq e’tibor berib, boshllang‘ich sinflardan shu tillarni ixtiyoriy tanlov orqali o‘rgatilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Chunki hozirgi kunda mazkur tillar bo‘yicha malakali kadrlar yetarli emas. Yurtboshimiz 2021-yil 6-may kunidagi Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektorda bunga alohida to‘xtalib o‘tdilar va kerakli ko‘rsatma, topshiriqlarni berdilar.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy tarmoqlarda g‘arb tillarini o‘rganish uchun onlayn darslar juda ko‘p uchraydi. Lekin xitoy, koreys, yapon va boshqa sharq tillarida juda kam. Mazkur tillarni o‘rganishni boshlamoqchi bo‘lgan yoshlarga qulaylik yaratish va qiziqishini orttirish uchun ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab video darsliklarni o‘zbek tilida yaratish lozim. Chunki bu tillarni o‘rganmoqchi bo‘lgan yoshlar yetarlicha ma’lumot olishga qiynalishmoqda. Internetda bor ma’lumotlarning aksar qismi boshqa xorijiy tillarda berilgan. O‘zbek tilida ma’lumotlar kam. Bu muammolarni bartaraf etmasdan kelajakda ushbu tillardan mutaxasislarni ko‘paytirish mushkul. Soha rivoji uchun ko‘pgina yangiliklar kiritish lozim. Til o‘rganuvchilarga o‘zbek tilida elektron lug‘atlar, audiodarsliklar, videodarsliklar va har xil turdagi qulay dasturlarni yaratish lozim. Shu tillarga ixtisoslashgan maktablarda, litseylarda va universitetlarda darslar soatini ko‘paytirish lozim. Mazkur tillar dunyodagi eng qiyin o‘rganiladigan, o‘z alifbosiga ega va tez unitiladigan tillar sirasiga kiradi. Masalan, xitoy tili nihoyatda qiyin va oxiri yo‘q til. Birinchi qiyinchilik, agar siz uni o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, juda murakkab va qadimiy iyerogliflarni o‘rganishingiz lozim. Xitoy tilida 87000 ga yaqin iyeroglif bor. Erkin muloqot qilish uchun 7000 ta iyeroglifni bilish lozim. Qiyinchilik nafaqat tilning ishora tizimida, balki to‘g‘ri imloda hamdir. Bitta iyeroglifda noto‘g‘ri

 DOI: 10.36078/1653410384

tasvirlangan yagona xususiyat so‘zning ma’nosini butunlay buzadi. Bitta xitoycha iyeroglif butun so‘zni yoki hatto jumlani anglatishi mumkin. Grafik belgi so‘zning fonetik mohiyatini aks ettirmaydi. Bu tilning barcha nozik tomonlarini bilmagan odam yozma so‘z qanday to‘g‘ri talaffuz qilinishini tushunaolmaydi.

Fonetika juda murakkab, u ko‘plab omofonlarga ega va tizimda 4ta tovushni o‘z ichiga oladi. Xitoy tilida 4ta ton mavjud. Har bir so‘z fonetik emas, alohida belgi bilan ifodalanadi. Shuning uchun bu so‘z qanday talaffuz qilinishi haqida zarracha ma’lumot bermaydi. Yapon tilini olaylik bu til ham juda murakkab. Chunki harf talaffuzdan farq qiladi. Bu tilni o‘qishni o‘rganish orqali gapirishni o‘rgana olmaysiz. Bundan tashqari, 3ta turli yozish tizimi mavjud. Kanji tizimi xitoycha belgilardan foydalanadi. Talabalar 10000 dan 15000 gacha belgilarni o‘rganishlari kerak. Bundan tashqari, yapon tilining yozma shaklida 2ta bo‘g‘in ishlatiladi: katakana so‘zlar uchun, hiragana qo‘shimchalar, grammatik zarralarni yozish uchun. Davlat departamenti yaponiyalik talabalarga ispan yoki fransuz tillarini o‘rganayotgan talabalarga qaraganda uch barobar ko‘p vaqt ajratadi. Koreys tilini alifbo va asosiy so‘zlarni bilmasdan turib o‘rganib bo‘lmaydi. Koreys tilida kirill yoki lotin alifbosiga o‘rganib qolgan odamlar uchun juda ekzotik ko‘rinadigan belgilar tizimi mavjud, ammo bu faqat boshida. Tillarning ommabopligi reytingida koreys tili 12-o‘rinda, nemis, fransuz va boshqa ommabop tillar esa undan keyingi o‘rinda turadi. Xitoy iyeroglif yozuvi – Hanja har doim koreys tilida ishlatilgan va qo‘llanilmoqda. Koreys tilida 40 fonema (19ta undosh, 21ta unli) mavjud. Sodda unli harflar 10ta, murakkab unlilar 11ta, sodda undoshlar 14ta, murakkab undoshlar 5ta jami 40ta harf mavjud. Morfologik jihatdan agglyutinatsiya rivojlangan. Fe’l zamonlari hozirgi, 2 ta o‘tgan 2 ta kelasi zamon shakllaridan iborat. Tilshunoslarning fikriga ko‘ra, hozirgi kunda eng faol tillar bu - xitoy, yapon va koreys tillaridir. Qizig‘i shundaki mazkur tillarni inson miyyasi idrok etishi boshqa tillarni idrok etishdan farq qiladi. Ushbu tillarda so‘zlashuvchilar uchun miyaning ikkala yarim sharlari yozish va o‘qish bilan shug‘ullanadi. Boshqa tillarda so‘zlashuvchilar uchun esa, bu holda, faqat bitta yarim shar ishlaydi. Bu tillarni o‘rganish miyani sezilarli darajada rivojlantirishga yordam beradi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mengliyeva M., Koreys tili universal qo‘llanma. T: Akademnashr, 2018
2. Xashimova S. Xitoy tili grammatikasi. T.: Extremum press, 2017
3. Yapon tili boshlang‘ich grammatikasi. T.: Adabiyot uchqunlari, 2018

DOI: 10.36078/1653410384

KOREYS VA O‘ZBEK ADABIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mirzayeva Aziza Azamatovna
Lingvistika (koreys tili) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation.This article examines the history of Korean and Uzbek literature and explains the stages of development to the audience in a concise and fluent circumstance. It invites you to learn about the historical development of poetry and prose in the literature of both languages. The article not only introduces the history of Uzbek and Korean literature, but also the history of literary figures who have left an unforgettable mark on literature through their immortal works.

Keywords: Hanmun, Chinese hieroglyphs, ancient works, hangil, folklore, poetry and prose, epic, works of art, lyrical and epic heritage.

Annotatsiya. Ushbu maqola Koreys va O‘zbek xalqlari adabiyoti tarixini o‘rganadi, uning rivojlanish bosqichlarini o‘quvchiga sodda va ravon holda tushuntirishda xizmat qiladi. Ikki til adabiyotida mavjud bo‘lgan ham nazm, ham nasr, ham publitsistik asarlarning tarixiy rivojlanish silsilasi bilan tanishishga va ularni yaqindan bilishga chorlaydi. Maqola nafaqat ikki til adabiyotning tarixi balki unda o‘z o‘rnini o‘chmas asarlari orqali chuqur egallagan adabiyot namoyondalari tarixi bilan ham tanishtiradi.

Kalit so‘zlar: bitiktoshlar, xanmun, xitoy iyeroglifi, qadimiy asarlar, hangil, folklor, nazm va nasr, epos, badiiy asar, lirik va epik meros.

Ma‘naviyat, axloq, estetik tuyg‘uni shakllantirishda adabiyotchalik xizmat etadigan vositaning o‘zi yo‘q desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Shu bois qadimdan, adabiyotga, badiiy so‘z san‘atiga e‘tibor nihoyatda katta bo‘lib kelgan. Birgina badiiy so‘zning qimmati haqidagi sharq va g‘arb allomalarining, arbob-u siyosatdonlarning, faylasuf-u ijodkorlarning aytgan fikrlarini jamlasak, badiiy adabiyotning nufuzi nihoyatda ardoqli ekanligini anglashimiz tabiiy. Mamlakatimizda qo‘lga kiritilgan mustaqillikdan so‘ng ko‘plab sohalarga, xususan, madaniyat va adabiyotni o‘rganishga qiziqish ortdi. Shu jumladan, xorijiy mamlakatlar tili va adabiyotiga ham e‘tibor kuchaydi. Chunki — «keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini

DOI: 10.36078/1653410384

yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish uchun qulay zamin yaratdi»[56].

Jahon xalqlari madaniy va ma‘naviy boyliklar bilan tanishish esa, o‘z milliy merosimizni munosib baholash imkonini beradi. Bu borada adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning xulosalari va tahlil materiallari o‘zbek va koreys adabiyotidagi ko‘zga ko‘ringan yetuk yozuvchilar va ularning boy ma‘daniy asarlari haqida bo‘lib adabiyotning rivojlanish bosqichiga uning paydo bo‘lgan nuqtasidan boshlab nazar tashlanadi. Koreys adabiyoti milodning avvalida qadimgi koreys folkloridan rivojlana boshlagan. XV asrda davlat hayotida ikki olamshumul voqea yuz bergan: 1403-yilda jahonda birinchi bosmaxona temir shrifti yaratilgan, 1443-yilda esa koreys milliy yozuvi – Xangil[57] joriy etilgan. Badiiy adabiyot XIX asr oxirigacha koreys tilida va xanmun – xitoy adabiy tilining koreyslashtirilgan shaklida yaratilgan. Xitoy iyeroglifi, keyinroq koreys alifbosida yozilgan «Ona-vatan qo‘shiqlari» (VII-XIasrlar) koreys adabiyotining qadimgi namunasidir. XI-XIV asrlarda uning davomi – «Koreya qo‘shiqlari» yaratildi. She’riyatning vujudga kelishida Chxve Chxi Von (857) muhim rol o‘ynadi. Li In No uni yanada rivojlantirdi. Badiiy nasr asta-sekin tarixiy adabiyotdan ajralib chiqdi. Novella janriga Kim Si Sip (1435) asos soldi. 1487 yil So Go Jon (1420) 130 kitobdan iborat «Sharq antologiyasi» ni tuzdi. Lim Je (1549 – 87) satirik qissalar yozdi. XVI- XVII asrlarda tabiat go‘zalliklarini madh etuvchi va falsafiy she‘riyat ravnaq, topdi. XVII-XIX asrlarda koreys tilida ko‘plab qissalar yozildi, dastlabki romanlar paydo bo‘la boshladi, yangi nasr shakllandi. Dastlabki erkin she‘rlarni Chxve Nam Son va Kim Ok yozdi.

Koreys zamonaviy adabiyotining bugungi kundagi yozuvchilari: Cho Xi Su 1962 yili Janubiy Koreyaning Paju shahrida tug‘ilgan. U Seul Universitetining badiiy peyzaj fakultetini tamomlagan bo‘lib, shu vaqtga qadar 9 ta kitobi nashr etilgan. Uning «Dadam bilan kitob», «Chuqur muhabbat baxtni yaratadi» nomli kitoblari mashhur.

Chong Yong Cheol (1962; Janubiy Koreya) hozirgi koreys adabiyotida proza janrining yetakchi namoyondalaridan biridir.

[56] Karimov.I O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O‘zbekiston, 1997. B.149.

[57] Xangil – 1443 yilda koreys sulolalaridan bo‘lgan qirol Se Jon tomonidan joriy etilgan 28 xarfdan iborat alifbo. Bu paytgacha xitoy ierogliflaridan foydalanilgan.

DOI: 10.36078/1653410384

Li Mi Ye (1964; Janubiy Koreya) koreys bolalar adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir.

Li Mun Yol – yozuvchi, hikoyanavist. «Imperator haqi» romani uchun Koreya Respublikasi adabiy mukofotiga munosib topilgan.

O‘zbek adabiyoti ham o‘zining qadimiy tarixi, nafis asarlari va ularning mazmundorligi, boy merosi bilan ajralib turadi. O‘zbek adabiyoti tarixi nozik ruhiy holatlarni mahorat bilan aks ettiradigan durdonalarga boydir. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uygota oladi, ularning manaviy boyishlariga tegishli hissa qo‘sha oladi. Ular ma’naviy kamolotga xizmat qiladi. Adabiyotshunoslikda o‘zbek adabiyoti tarixi ikki nom asosida tilga olinadi:

1. O‘zbek mumtoz adabiyoti. Bunda eng qadimgi davrlardan boshlab, XX asr boshlarigacha bo‘lgan davr nazarga olinadi.

2. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti yoki XX-XXI asrlar o‘zbek adabiyoti. O‘zbek adabiyoti tarixi xilma-xil tur va janrdagi badiiy asarlarni o‘z ichiga oladi.

Milodiy 7 asrga qadar yaratilgan asarlar va O‘zbek mumtoz adabiyoti vakillari hamda ular yaratgan durdonalar:

Avesto – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir.

O‘rxun-Enasoy obidalari – V-VII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sifatida qadrli manbaadir.

Ahmad Yassaviy – ilk turk mutasavvufi, yassaviylik tariqatining asoschisi, orifona she’riyat boshlovchisi.

Mahmud Qoshg‘ariy – qomusiy olim, fiqh va hadis ilmining bilimdoni. Qoshg‘arda tug‘ilgan, qoraxoniylar davlatining poytaxti Bolasog‘unda yashagan. «Devonu lug‘otit-turk» asari (1068) bilan turkshunoslik faniga asos solgan.

Yusuf Xos Hojib – dostonnavis adib Bolasog‘unda tug‘ilgan, qoraxoniylar saroyida xizmat qilgan. Uning «Qutadg‘u bilig» – (Saodatga boshlovchi bilim) asari qoraxoniylar davlatining mustahkam qaror topishiga xizmat qilgan nizomnomadir.

Lutfiy – XV asr o‘zbek she’riyati takomilida o‘ziga xos o‘ringa ega, katta iste’dod sohibi bo‘lib tuyuq janrining ustasi va o‘z davrining mashhur namoyondasi hisoblangan.

Alisher Navoiy – ulug‘ o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. G‘arbda chig‘atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda «nizomi millati va din» – (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug‘lanadi.

DOI: 10.36078/1653410384

Zahiriddin Muhammad Bobur – ulug‘ o‘zbek shoiri, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi. Markazlashgan davlat va boburiylar saltanati asoschisi. «Boburnoma» asari ensiklopedik asar bo‘lib uni o‘rganishning ilmiy-ma’rifiy va tarbiyaviy axamiyati beqiyosdir.

Boborahim Mashrab – ulug‘ o‘zbek shoiri, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyandasi.

Jahon otin Uvaysiy – atoqli shoira, o‘zbek shoirlari murabbiysi Jahon otin Uvaysiy Marg‘ilonda tug‘ilgan. Otasi Siddiq bobo ikki tilda she’rlar yozgan. Nodira (Komila) – taniqli shoira, davlat arbobi. Asl ismi Mohlaroyim, mumtoz adabiyot merosiga o‘zining g‘azallari bilan hissa qo‘shgan.

Jadid adabiyoti davri (1905–1930 yillar).

Mahmudxo‘ja Behbudiy – dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi. Turkistonda jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri.

Abdulla Avloniy – XIX asr oxiri XX asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma’rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobidir.

Abdurauf Fitrat – O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi o‘zbek adabiyotining asoschilaridan, usuli jadid maktablarining nazariyotchisi va amaliyotchisi, dramaturg, nosir, shoir va olim.
Hamza Hakimzoda Niyoziy – jadid adabiyoti namoyandasi, shoir, dramaturg, adib va muallim.

Abdulla Qodiriy – o‘zbek milliy romanchiligining asoschisi, hajv ustasi, tilshunos olim va tarjimon.

Abdulhamid Cho‘lpon – o‘zbek yangi she’riyatining asoschilaridan biri, dramaturg, nosir va tarjimon.

Sovet davri adabiyoti (20 asrning 30-80 yillari).

G‘afur G‘ulom – yozuvchi, shoir, drammaturg, o‘zbek tarjima maktabining maydonga kelishiga ham ulkan hissa qo‘shgan. U «Otello», «Qirol Lir» singari jahon va rus adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan o‘girgan.
Abdulla Qahhor – yozuvchi, muharrir, pedagog, munaqqid. O‘zbek hikoyachiligida alohida o‘ringa ega.

Hamid Olimjon – iste’dodli shoir. Lirik she’rlari bilan XX asr o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan.

DOI: 10.36078/1653410384

Usmon Nosir – XX asr o‘zbek she’riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan va yashindek qisqa ijodiy umr kechirgan talantli shoir.

Zulfiya – O’zbekiston xalq shoirasi, jurnalist, tarjimon, jamoat arbobi. O’zining qaynoq she’riy to‘plamlari bilan nazmda o‘chmas iz qoldirgan. Said Ahmad – O‘zbek nasrining peshqadam arboblaridan biri, o‘zining satirik asarlari, hikoya va romanlari bilan ulkan hissa qo‘shgan.

Rauf Parfi – isyonlor iste’dodli va taqdirli shoir. Uning she’riyati va ijodi umuminsoniyat erkinligini kuylash bilan birga, milliy o‘zlikni cho‘qqiga chiqargan. Muhammad Yusuf – shoir, ijodkor, dostonnavis, ona diyor va istiqlol kuychisi. Hozirgi o‘zbek she’riyatiga yangicha badiiy tafakkur yo‘sinlarini olib kirdi. Abdulla Oripov – atoqli o‘zbek shoiri va jamoat arbobi. U hozirgi o‘zbek she’riyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran, haqqoniy o‘ziga xos betakror kuylagan ulkan ijodkordir.

Bilamizki, biz tahlilga tortgan ikki millat adabiyoti ham o‘zining qadimiy ildiziga, rivojlanish bosqichiga ega. Koreys adabiyoti ham, O‘zbek adabiyoti ham o‘zining mazmundorligi, tarixiy qimmati bilan ajralib turadi. Adabiyot tarixida nazmda yozilgan asarlar ham, nasrda yozilgan asarlar ham bu millatlar adabiyotining boy tarixidan darak beradi va doimo uning ko‘lami yangidan yangi mahoratli yozuvchi, shoirlar tomonidan kengayib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 560 b

2. Hozirgi o‘zbek adabiyotining milliy o‘ziga xosligi. Toshkent: Fan, 1984. 200 b.

3. Ким Соволь. Корейская поэзия XX века. М.: Первое марта, 2003. 175 с.

4. Ким В.Н., У.Т.Сайдазимова, И.Л.Пак. Литература изучаемого языка (Корея). Ташкент, 2009. 224 с.

5. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. (Birinchi kitob) Toshkent: O‘zbekiston, 2008. 536 b.

 DOI: 10.36078/1653410384

KOREYS VA O‘ZBEK SHE‘RIY JANRLARINING QIYOSI
(Sijo hamda g‘azal janrlarining tahlili asosida)

Mirzayeva Aziza Azamatovna
Lingvistika (koreys tili) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. It is critical to compare a writer's work to similar works by other artists while studying and comprehending its characteristics. The comparative study of literature, literary trends, and writers' works is of scientific and practical importance in today's world, where economic, cultural, and literary relations with people all over the world are growing more and more. It helps us understand not only other (similar) works, but also our own, as well as conduct scientific and artistic analyses of its peculiarities. The goal of this article is to use linguistic analysis to identify and apply the similarities and differences between Uzbek and Korean poetry in order to familiarize readers with the most typical genres in Korean and Uzbek literature.

Keywords : literary analysis, the description of the nature, sijo (시조), genre (لزغ).

Annotatsiya. Yozuvchi ijodining o‘ziga xos qirralarini o‘rganishda va anglab yetishda uni boshqa bir ijodkorning o‘xshash asarlari bilan qiyoslab tahlil qilish muhimdir. Jahon xalqlari bilan iqtisodiy, madaniy va adabiy aloqalar kundan-kunga rivojlanib borayotgan hozirgi davrda adabiyotlarni, adabiy oqim, yo‘nalish va yozuvchilar ijodini qiyoslab o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu bizga boshqa (qiyoslanayotgan) adabiyotnigina emas, o‘z adabiyotimizni ham yaxshiroq anglashga, uning nozik jihatlarini ilmiy-estetik tahlil qilishga yordam beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi o‘zbek va koreys adabiyoti poeziyasini qiyoslagan holda lingvistik tahlil qilish orqali ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlab, amaliyotga tatbiq etish, kitobxonlarni koreys va o‘zbek adabiyotida keng tarqalgan janrlar bilan tanishtirish.

Kalit so‘zlar: adabiy tahlil, janr, peyzaj, sijo (시조), janr estetikasi, g‘azal (لزغ).

«Badiiy asar tahlilida amal qilinadigan tamoyilardan biri har qanday tahlilning shaxsiy mulohaza ekani va u hech qachon mutlaq haqiqat bo‘lmasligidir. Tahlilchi

DOI: 10.36078/1653410384

qanchalik bilimdon va mohir bo‘lmasin, uning fikrlari hamisha faqat shaxsiy mulohaza maqomida bo‘ladi. Ilmiy haqiqatlar ko‘pchilik tomonidan birday qabul qilinadi, ammo estetik haqiqatlar to‘g‘risida bunday deb bo‘lmaydi. Har bir o‘quvchi asarni o‘zicha o‘qiydi, tushunadi, ta’sirlanadi, his etadi va o‘zicha to‘xtamga keladi. Bir asarni o‘qigan bir qancha kishi o‘rtasida o‘zaro o‘xshash fikrlar bo‘lgani singari, bir-birini mutlaqo inkor etadigan qarashlar uchrashi ham tabiiy holdir» [58] .

Inson o‘zining o‘tkinchiligini anglagandan buyon yashagan umrini abadiylashtirishga urinib keladi. Odamning bu boradagi intilishlari badiiy adabiyotda, ayniqsa, yorqin va jozibali yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Shu boisdan badiiy adabiyotning mohiyatini anglab yetish nafaqat filolog mutaxassis, balki o‘zi haqida o‘ylaydigan har bir fikr kishisi uchun o‘ta muhimdir. Kishida badiiy asarni to‘g‘ri anglash va ta’sirlanish fazilati adabiy asar o‘qish bilan o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

Kunbotish estetikasida asosiy e’tibor badiiy asarning g‘oyasi, unda ilgari surilgan fikrni topishga qaratiladi. San’at asarining go‘zalligiga ko‘proq chiroyli libos, jozibali tashqi bezak tarzida qaraladi. Kunchiqish badiiyati uchun esa hamisha tasvirning qandayligi muhim sanaladi. Shu sababli **Kunbotish estetikasida asarda nima tasvirlanganini, Kunchiqish badiiyatida esa nimaning qanday tasvirlanganini** aniqlash badiiy tahlilning diqqat markazida turadi. Biz tahlilga tortgan Koreys va O‘zbek adabiyotida badiiy ijod asosida hamisha go‘zallik (inson, tabiat, fitonomiya) va ishq (suyukli inson vasliga yetishish) masalasi turgan. Ikki til poeziyasida eng keng tarqalgan va ommalashgan, boy tarixi, merosiga ega bo‘lgan she’riy janrlar va ularning lingvistik tahlili haqida so‘z yuritiladi. Avvalambor lingvistik tahlil badiiy asarning qaysi jihatlarini o‘rganishini, unga qay holatda yondashishini bilib olamiz:

Lingvistik yo‘nalishdagi badiiy tahlilda asosiy e’tibor asarning til jihatiga qaratiladi. Bu yo‘nalishda asar filologik hodisa sifatida til va tasvir vositalarini qo‘llash, tilning tasvir imkoniyatlari doirasida badiiy shakllar yaratish nuqtai nazaridan tekshiriladi. Bunda muallifning faoliyati an’anaviylik va novatorlik pozitsiyasidan baholanadi. So‘zning o‘z va badiiy ma‘nosi, kontekstdagi jozibasi, badiiy matn

[58]«Mohiyatni anglatish yo‘li» Qozoqboy Yo‘ldoshev. «Mening kutubxonam» ko‘rsatuvidagi adabiy qarashlaridagi o‘ziga xoslik. www.khurshid.davron.uz

DOI: 10.36078/1653410384

zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning hayotiy-estetik sabablari singari jihatlarga e’tibor qaratiladi. Maqolada koreys va o‘zbek mumtoz poeziyasida uzoq yillik kelib chiqish tarixiga ega, shoirlar ijodida salmoqli o‘rin egallagan sijo va g‘azal janrlari haqida izlanamiz va tahlilga tortamiz.

XIV – XVI asrning so‘ngida koreys she'riyati va nasrida yangi janrlar yuzaga keladi, xarakterlar o‘zgaradi, adabiyotda to‘qima qahramonlar paydo bo‘la boshlaydi. O‘rta asr koreys she'riyatining ona tili (xangil)dagi eng yorqin namunalaridan biri bu sijo bo‘lib, XV–XVIII asrlarda keng tarqalgan janrlardan biridir. Sijo janrining dastlabki namunalari XVIII antologiyalarida uchraydi. XIV– asrga kelib o‘zbek mumtoz adabiyotida ham yangi she’riy janr – g‘azal janrining namunalari yozma shaklda shoirlar devonida uchray boshlagan.

Sijo va g‘azal janrlarining mavzular ko‘lami juda ham keng bo‘lib, peyzaj va daos (dunyoviy hayotdan ketayotganlar kuyi), vatanparvarlik va sevgi, yorga murojaat qilish haqidagi qarashlar va mavzular ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu janrlar nafaqat shoirlar tomonidan, balki turli xalq vakillari tomonidan ham yozilgan. Tahlil qilinayotgan ikkala janr ham asrlar davomida sayqallanib kelgan bir qancha turlariga ega, xususan, sijo janrining keng tarqalgan turlaridan biri pxyon–sijoning kompozitsion usulida birinchi ikki misrasi mavzu jihatdan bir-biri bilan bog‘liq, uchinchi misra esa umuman bog‘lanmaydi. Boshlang‘ich misradagi ayrim bo‘g‘inlar so‘nggi bo‘g‘inlar bilan o‘xshash bo‘ladi. Keyinchalik sijoning yangi turlari, ya’ni os-sijo (mavzular bo‘yicha biriktirilgan siklik sijo) va va sosol sijo (darakchi sijo)lar yuzaga keldi. Bu sijolarning hammasi umumlashtirilib chan (uzun)-sijo deb ataladi.

G‘azal janrining mavzular ko‘lami jihatidan o‘ziga xos turlariga esa oshiqona g‘azallar, orifona g‘azallar, rindona g‘azallar, hajviy g‘azallar, axloqiy-ta’limiy g‘azallar, peyzaj g‘azallar, publitsistik g‘azallar kabi tasniflarga ajratish mumkin. Shu o‘rinda o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixiga g‘azal janri doirasining kengayishi va takomilida hazrat Alisher Navoiychalik hech kim xizmat qilmagani haqida aytib o‘tish lozim, quyida uning peyzaj xarakteridagi g‘azali tahlilini keltirib o‘tamiz:

Agar tong men kabi qalbida yashirgan mehridan bedor bo‘lmasa,
Nega ohu sariq ruxsorini ko‘rsatdi?
Gar bu tong menga o‘xshamasa,
Nega tog‘ uzra ko‘ylagini men majnundek chok ayladi?
Tongning mehrdan mendek nihoniy toza dog‘i bo‘lmasa,
Yuzda nechun yulduzlardek ashkini izhor qiladi?

DOI: 10.36078/1653410384

Sen ularni qizg‘ish bulutlar dema!

Ular asli rashkimdan dog‘langan qonli momiqdir!..

G‘am tunida men chekkan ohning bir uchqunidan ko‘kka o‘t tutashdi va u ishqim olovi rangiga kirdi.

Ko‘rganlar bu tongga «Gumbadi davvor» deb nom qo‘yishdi.

Bu ko‘ringan quyosh nuri chiziqlari emas,

Balki tong o‘z yuzini yulduzlar tirnog‘i bilan tilib, menga motam tutmoqda!..

Do‘stim!

Biz bu dunyodan ketganimizdan keyin ham ko‘p bora bu kabi tonglar otadi!

Ey Navoiy! Bu bog‘da bargu – navo, murod – maqsad istasang tunda guldek rukuda, tongda esa bulbuldek bedor bo‘l![59]

A.Navoiyning tuyg‘u va holatlarni muayyan tushuncha atrofida umumlashtirib ifodalash borasidagi mahorati ushbu g‘azalda yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, g‘azalda subh – tong tasviri etakchilik qiladi. Navoiy she'riyatida tong mavzusi bilan bog‘liq ko‘plab g‘azallar mavjud, zero, mumtoz adabiyotda subh – **ilohiy fayz** manbai. Inson ruhiyatining subh bilan uyg‘un holdagi tasvirini kuzatar ekanmiz, g‘azalda mutafakkir shoirning musavvirona nigohi ham namoyon bo‘ladi. E'tibor berilsa, g‘azal tong otish tasviri bilan boshlanib, baytma-bayt rivojlanib boradi: atrof tumanli, shafaq zarg‘aldoq tusda (1-bayt), keyin tog‘ tomon yorishadi (2-bayt), samoni oppoq yulduzlar qoplagan (3-bayt), bulutlar qip-qizil tusga kiradi (4-bayt), quyosh chiqishidan oldin butun shafaq qon rangini olgach (5-bayt), g‘arb tarafda qolgan yulduzlar asta-sekin so‘nadi, olamni quyosh nuri zabt etadi (6-bayt), tong otib, quyosh chiqadi (7-bayt) va lirik qahramon bu jarayondan o‘zi uchun ibrat chiqaradi (8-bayt).

IX – X asrlar boshida koreys shoirlari sijoning besh va yetti bo‘g‘inli misralarining klassik shaklini qo‘llay boshladilar. Bu shaklning eng buyuk ustasi Goryeo sulolasi davrida yashagan Li Gyu Bo edi. U o‘zining ona tabiatini ko‘plab go‘zal she'riy tasvirlar bilan ifodalagan. Nozik go‘zallik tuyg‘usiga ega shoir bir necha chizgilar bilan yuqorida aytib o‘tilgan mavzu – tongning yorqin manzarasini chiza olgan, uning jozibasi **Koreya – Tong osoyishtaligi o‘lkasi** nomida o‘z aksini topgandir. Masalan, u «Bahorda oyning aks etishi» ni shunday ta’riflaydi:

[59]«G‘aroyib us-sig‘ar»104-g‘azal

DOI: 10.36078/1653410384

«Bir oz moviy to‘lqinlar bilan qoplangan buloq,
Mox tosh soyasi ostida turar.
Zo‘rg‘a tug‘ilgan o‘ynoqi bu oy
Toza suvda cho‘milar.
Va to‘satdan suv uchun kelgan kimdir
U tasodifan suvdan hovuchiga oldi,
Va bu oyna parchasin aniq
Abadiy o‘zi bilan olib ketdimi?»

Li Gyu Boning adabiy merosi juda kata bo‘lib, uning ikki mingga yaqin she‘rlari mavjuddir. U Koguryeo (Tongmenvan) davlatining asoschisi shoh Dongmen haqida katta she’r va ko‘plab nasriy asarlar yaratgan. Li Kyu Bo ijodi - xanmundagi koreys she'riyatining eng yuqori gullagan davri deya e’tirof etiladi.

Har qanday ijtimoiy va estetik hodisa muayyan milliy zaminda paydo bo‘ladi. Binobarin, uni tushunish, tadqiq etish va tushuntirishda o‘sha millatga xos xususiyatlar hisobga olinishi lozim. Biror millat uchun ezgulik yoki go‘zallik namunasi hisoblangan hodisa boshqa etnos nazarida yovuzlik bo‘lib ko‘rinishi ham mumkin. Chunonchi, g‘arb poeziyasida oy ko‘proq, loqaydlik, befarqlik ramzi bo‘lsa, sharq poeziyasida yangi chiqqan to‘lin oy go‘zallik, timsoli sifatida xizmat qiladi va unga eng nafis timsollar qiyoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ким В.Н. Особенности традиционного народного искусства корейского и узбекского народов // Материалы международной научной конференции по корееведению. – Казахстан, 2006. – С. 279–285.
2. Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz
3. Ziyamuhammeova J. Pu: Fil. f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T.: TDSHI, 2005. – 143 b.
4.http://www.sijomunhak.com
5. http://blog.naver.com

DOI: 10.36078/1653410384

KOREYS TILIDAN TARJIMA QILINGAN HIKOYALARNING LINGVOMADANIY JIHATIDAN TAHLILI

Nabiyeva Gavxar Gayratovna
Lingvistika (koreys tili) yo‘nalishi
2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. This article explains the issues of linguoculturology, comparative, cognitive and applied linguoculturology specific to the Korean and Uzbek story genres. The importance of a linguocultural approach in language analysis is also emphasized. The problems of language and culture, the interdependence, connection and interaction of cultures are studied as cultural phenomena.

Keywords: lingvoculturology, cultural, literary tools, animation.

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys hamda o‘zbek tilidagi hikoya janriga xos bo‘lgan lingvokulturologik, qiyosiy, kognitiv hamda amaliy lingvokulturologiya masalalariga izoh beriladi. Shuningdek, tilni tahlil qilishda lingvomadaniy yondashuvning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Til va madaniyat, madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, aloqasi hamda o‘zaro ta’siri muammolari madaniy hodisa sifatida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, madaniy, adabiy vositalar, jonlantirish.

Hikoya adabiy va badiiy dizayndagi yozma ma’lumotlarning ajoyib adabiy shakli bo‘lib u kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o‘stiradi, qahramonlar obrazi yordamida ularni to‘g‘ri so‘z, rostgo‘y, mehnatsevar, mard, jasur, matonatli bo‘lishiga o‘rgatadi, kishidagi insoniy fazilatlarni targ‘ib etadi. Kishi milliy madaniyatini, mentalitetini, so‘z boyligini hikoyalar orqali namoyon qilganligi bois ham hikoyalar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, insonlar uni sevib o‘qishadi. Hikoya har qanday haqiqiy, tarixiy voqealarni qog‘ozda aks ettirishning qulay usuli hisoblanadi.

Lingvomadaniy tahlil fanlararo zamonaviy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallashi tabiiy holdir. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniy kodlari ichida eng muhimlaridan biri sifatida qaraladi.

DOI: 10.36078/1653410384

Til va madaniyatning lingvomadaniy mazmuni hodisasini atrofdagi tilshunoslik omilining mavjud bo‘lish shakllaridan biri sifatida tushunish istagi lingvomadaniy yo‘nalishning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Uning lingvomadaniy makoni o‘ziga xos talqinga ega etib namoyon qilinadi va u nafaqat milliy, balki butun jahon madaniyatining torusi hisoblanadi. Shuni takidlab o‘tish joizki, madaniy tilshunoslikning asosiy predmeti o‘z navbatida bir necha yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1. Emotsional natijalarni aniqlash nuqtai nazaridan til birliklarining xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan kognitiv-semiologik madaniy tilshunoslik;

2. Milliy va jahon lingvomadaniyatini keng tahlil etuvchi tarixiy lingvokulturologiya;

3. Lingvomadaniyatlar rivojlanish bosqichlarini o‘rganuvchi tarixiy va tipologik madaniy tilshunoslik;

4. Pragmani hal qilishga qaratilgan qiyosiy madaniy tilshunoslik;

5. Asosiy kognitiv bazaga kiritilgan madaniyat va lingvokultura birliklarini tahlil etuvchi kognitiv madaniy tilshunoslik;

6. Ma’lum bir lingvomadaniy vaziyat yoki ma’lum bir madaniy davrni tushunishga qaratilgan alohida ijtimoiy guruh, etnos, sub-etnos madaniy tilshunoslik.

O‘zbek va koreys adabiyotida hikoya janri badiiy saviyasi baland asar hisoblanadi. Hikoyada davr va qahramon masalasi, harakterlar talqini asarni asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi. Hikoya janri azal-azaldan didaktik ma’no kasb etib, insonlarga ma’naviy ozuqa berish va ularni yaxshiliklarga yetaklash uchun xizmat qilib kelgan. Shu sabab, hikoya janri badiiy adabiyotda alohida ahamiyat kasb etadi.

Koreys tilidagi hikoyalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy nutqning barcha farqlari o‘zbek va koreys madaniyatlari, bu sohadagi kontseptualizatsiya strategiyasi farqlardan ko‘ra o‘xshashlik bilan tavsiflanadi. Lingvomadaniy kodlar borliqni shakllantiradi va milliy madaniy makonda markaziy o‘rinni egallaydi va ayni paytda madaniy bilimlarni tizimlashtirish vositasi hisoblanadi. Aynan lingvokulturologik yondashuv matnni madaniy va lingvistik hodisa sifatida talqin qilishga imkon beradi. Bunda uni yaratgan xalqning milliy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari aniq ochib beriladi. O‘quvchini qiziqtira olish, tasavvurini rivojlantirish hamda ularni o‘ziga jalb etish uchun hikoyalarda turli xil badiiy vositalardan foydalaniladi. Bu vositalar adabiy vositalar, unsurlar, resurslar kabi turlicha nomlar bilan atalishi mumkin. Adabiy vositalar – bu yozuvchilar matn yaratish uchun

DOI: 10.36078/1653410384

foydalanadigan o‘ziga xos til texnikasi bo‘lib, u odatda aniq, qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi.

Jahon adabiyotida hikoya qadim an’analarga ega. O‘tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri bo‘lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Yevropa adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga italyan yozuvchisi Jovanni Bokachcho «Dekameron» asari bilan katta hissa qo‘shgan. Asarda 7 qiz va 3 yigitning 10 kun davomida aytgan 100 ta hikoyasi berilgan. Gi de Mopassan (Fransuz), Ogenri (Amerika), A.P.Chexov (rus), A.Qodiriy, Cho‘lpon (o‘zbek) hikoya janrining asoschilari hisoblanadi. Yevropa adabiyotida hikoya novella deb ham ataladi. O‘zbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar – Kultegin va To‘nyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealar ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Nosiriddin Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy» asarida ham axloqiy xarakterdagi hikoyaning yaxshi namunalari bor. Bobomiz Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonining 5-maqolotidagi «Hotami Toy hikoyati», 20-maqolatidagi «Ul qul hikoyati», «Sab’ai sayyor» dostonidagi yetti musofir hikoyalari ham bu janrning ilk namunalari hisoblanadi. 16-asrda yaratilgan Poshshoxojaning «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» asarlari o‘zbek hikoyachiligining rivojlanishiga asos bo‘lgan. Hikoya biror bir davr bilan bog‘liq bo‘ladi. Koreys mualliflardan 김동인(Kim Dong In),김지하(Chi-Ha Kim), 황석영(Hwang Sok-yong), 김승옥 (Kim Seungok), 한강(Han Kang), 신경숙(Kyung-sook Shin), 박재연 ,김영. 진경지, 조현용 (Hyun Yong Cho), 김영만 (Young Man Kim), 박종민 (Park, Jong Min) kabilar hikoya janrida samarali ijod qilishgan.

Hikoya kichik voqelikni yorituvchi publitsistik janr bo‘lib, u harakatga boy syujet, kutilmagan yakun va aniq muallif pozitsiyasining yo‘qligi bilan ajralib turadi. Hikoya mualliflari, qoida tariqasida, qahramonlarning ichki dunyosini va ularning motivlarini ochib bermaydilar. Bunday asarlar bitta g‘ayrioddiy voqea atrofida rivojlanadigan kichik voqeliklar haqida so‘zlab beradi [60] . Nemis yozuvchisi Iogan Gyote hikoya haqida shunday degan: «Hikoya eshitilmagan voqeadan boshqa narsa emas»[61].

[60] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/uzoq-jo-raqulov-xos-kalom-xosiyati-2012-yil-hikoyalari-tahlili-2013

[61] Гете Иоганн Вольфганг, Художественная литература. М.:1975.

DOI: 10.36078/1653410384

Hikoya janri uyg‘onish davrida paydo bo‘lgan va o‘z nomini italyancha «novella» «yangilik» so‘zidan olgan. Shu tariqa 13-asrda yaratilgan xalq ertaklari va o‘rta asr latifalari asosida yaratilgan hikoyalar shunday nomlangan. 1290-yillarda «Novellino» yoki «Yuz qadimiy hikoya» nomli anonim italyan hikoyalar to‘plami paydo bo‘lgan.

XVIII asrda, romantizm davrida tasavvuf, fantaziya va ertaklik unsurlari bo‘lgan novellalar mashhur bo‘ldi. Ular Ernst Xoffmann, Novalis, Edgar Po tomonidan yozilgan. 19-asrda esa mashhur frantsuz romanchilari Prosper Merime va Gi de Mopassan, aksincha, kutilmagan yakun bilan realistik hikoyalar yaratishga kirishdilar. 19–20-asrlarning 2-yarmida bu an’anani O.Genri, X.G.Uells, Artur Konan Doyl va boshqa ingliz va amerikalik yozuvchilar davom ettirdilar.

Bu davrda rus adabiyotida ham hikoya janri keng tarqaldi. Masalan, 1937 yildan 1944 yilgacha Ivan Bunin «Qorong‘u xiyobonlar»[62] nomli ishqiy hikoyalar to‘plamini yozgan. Muallif klassik hikoyaning barcha qonunlariga muvofiq bir xil nomdagi birinchi hikoyasini yaratdi. Unda faqat ikkita asosiy va bitta kichik qahramon bor edi va barcha harakatlar bitta voqeaga birlashtiriladi - ajralishganidan 30 yil o‘tgach, sevishganlarning tasodifiy uchrashuvi va qisqa hikoyalarda odat bo‘lganidek, juda kutilmagan tarzda fojiali sevgi yakuni.

Hikoya–badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim an’analarga ega. O‘tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri bo‘lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Gi de Mopassan (Fransuz), Ogenri (Amerika), A.P.Chexov (rus), A.Qodiriy, Cho‘lpon (o‘zbek) hikoya janrining asoschilari hisoblanadi. Yevropa adabiyotida hikoya «novella» deb ham ataladi.

Koreys tilida hikoya atamasi **조선이** va **동문** qoldiqlari hujjatlarda Choson sulolasi o‘rtalarida uchraydi. Hikoya – har bir xalqning uzoq tarixi bilan birga og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan ixcham, sodda va muloyim ifodalaydigan qimmatbaho nasriy merosdir. Ko‘p hikoyalar, asosan, oddiy odamlar hayotidan olingan. Hikoyalar ixcham ifodasi aniq, voqelikni o‘rnida ko‘rsatib berilsa katta ta’sirga ega hisoblanadi.

Hikoyalar mantiqiy qarama-qarshiliklarni, hayot qiyinchiliklari, jamiyatning jirkanch o‘yinlari-yu, ijtimouy muhitni ma’no jihatidan teran ifodalaydi. Buning sababi shundaki, jamiyat bu kabi qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lgan joy. Axir, odamlar

[62] И. А. Бунин. Собрание сочинений в 9-ти т. Т. 7. М.: Художественная литература, 1966.

DOI: 10.36078/1653410384

mantiqiy qarama-qarshiliklardan ustun bo‘lgan o‘lchovda yashaydilar. Hikoya insoniyat jamiyatini qanday bo‘lsa shunday aks ettiruvchi oyna deb aytish mumkin. Unda davlat yoki dinga qanday qarash bu oynada aks etgan.

Koreys hikoyalari qadim zamonlardan buyon o‘tib kelayotgan ajdodlarning donoligini, hayot falsafasi va mohiyatini o‘z ichiga olgan janr bo‘lib, u ma’lum bir vaziyat yoki mazmunni qulay tarzda o‘qitish yoki satira uchun tasvirlash bilan tavsiflanadi. Xalqda afsonalar singari noyob hikoyalar bo‘lganidek, har qanday jamiyatda insonlar ham o‘z g‘oyalarini to‘playdilar va ularni tilda ifodalaydilar. Shu sababli turli jarayon orqali shakllangan millatga xos hikoyalar mavjud. Hikoyalarni xalq orasida sevib o‘qiladigan janr deb aytish mumkin. Hikoyalarning mazmun-mohiyatini umumlashtirish uchun turli xil adabiyotlarda ijodkorlar tomonidan ta’riflar keltirilgan:

전윤진 (Jon Yun Chin) «Hikoya voqelikni qahramonlar tili va obrazi orqali yoritib beruvchi ertak bo‘lib, u keksa odamlarning fikrlari va turmush tarzini o‘z ichiga oladi. Hikoyalar odatda uzoq vaqtdan beri saqlanib kelingan hodisa yoki yangilangan hayotdir», **임무칠** (Im Mu Chil) «Hikoyalar publististika tarkibiga kiradi, ular ko‘pincha umumiy va umuminsoniy mazmunni o‘z ichiga oladi. Boshqa tomondan, hikoyalar mahalliylik va vaqt bilan cheklanganligi bilan ajralib turadi», **남윤신** (Nam Yun Shin) «Hikoya bu tabiat tomonidan odamlar orasida keng tarqalgan donolikni, fikrlash tarzini va odamlar hayotining qadriyatlarini aks ettiradi», **초이창** (Choi Chang) «Hikoya ijtimoiy muhit, voqelikni ifodalovchi qimmatbaho meros. Hikoya millatning yaxshi saqlanib qolgan lingvistik odati yoki ruhi», **김무신** (Kim Mu Shin) «Hikoyalar ajdodlarimizning uzoq umrlari va tajribalaridan olingan tajriba va saboqlarni ixcham ifodalaydigan adabiy janr», **저힌촌** (Jo Hin Chon) «Hikoya bizga hayot haqiqatini isyonning bir shakli sifatida emas, balki haqiqat sifatida o‘z ichiga oladi. Hikoyalar bizning tarixiy holatimizni nasriy shaklda o‘z ichiga olgan merosdir»[63] .

«Hikoya» atamasi kengroq ma’noda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. So‘zlab berilgan bunday voqelik o‘z qamrovi, hajmi, rang-barangligi bilan qissa yoki romanga xos bo‘lishi ham mumkin.

[63] https://namu.wiki/w/%EC%9D%B4%EC%95%BC%EA%B8%B0%20%EC%8B%9C%EB%A6%AC%88

DOI: 10.36078/1653410384

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Шарқ, 1999.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М.: Академия, 2001. 208 с.
3. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/oila-va-jamiyat/hikoya-haqida-hikoya

O‘ZBEK VA KOREYS TILIDAGI HIKOYALARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING BERILISHI

Narzullayeva Elnura Marat qizi
Lingvistika (koreys tili) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. It is known that the phraseological structure of language is a peculiar phenomenon, which is manifested in the creation of a figurative image of reality using the spiritual experience of phraseological units associated with the cultural traditions of the language community. . The article discusses the semantic issues of phraseological units, the connotative side of the meaning of phraseological units.

Keywords: Phrase, comparative phrase, phraseological unit, semantic analysis, synonym phrase.

Annotatsiya. Ma’lumki, tilning frazeologik tarkibi o‘ziga xos hodisa bo‘lib, bu o‘ziga xoslik frazeologik birliklarning til jamoasining madaniy an’analari bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy tajribasi yordamida voqelikning obrazli tasvirini yaratishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Maqolada frazeologik birliklarning semantika masalalari, frazeologik birliklar ma’nosining konnotativ tomoni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Ibora, qiyosiy ibora, frazeologik birlik, semantik tahlil, sinonim ibora.

Lingvistika sohasida frazeologiya bu tasvirlovchi so‘zlar masalan idiomalar, frazeologik fe’llar va leksikologik birliklarning boshqa turlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, bunda so‘z birikmalarining tarkibi ma’nolari orqali umumiy ma’noni bilib bo‘lmaydi.

 DOI: 10.36078/1653410384

Frazeologizmlar mustaqil birliklar sifatida qo‘llaniladi. Masalan koreys tilidagi «**입에 거미줄을 치다**» iborasi och qolmoq ma’nosida ishlatiladi. So‘zma so‘z tushunadigan bo‘lsak, «og‘ziga o‘rgimchak to‘r to‘qimoq», deb tarjima qilinadi. Frazeologizmlar har bir milllatning madaniyatidan kelib chiqib yaratiladi va bitta qolipga tushadi. Masalan, oyog‘ini qo‘lga olmoq iborasi shoshilmoq ma’nosida ishlatiladi. Aslida iboralar bir so‘zga teng bo‘lolmaydi.

Frazeologik birliklar tuzilmaviy tashkil etilishi, mazmuni va funksional-stilistik mansubligi jihatidan o‘zaro bir-biridan farqlanadi. Quyida koreys tilidagi iboralarning bir nechtasini o‘zbek tili bilan solishtirib o‘rganib chiqamiz.

물고기(의) 밥이되다 – baliqlarga yem bo‘ldi. (suvga yiqilib o‘lmoq ma’nosini bildiradi)

Misol: «**멀쩡하게 나갔던 사럼이 물고기 밥이되었더니 믿어지지가 않아요**»

Butun boshli inson suvga yiqilib o‘lganiga ishonolmayapman.

기름밥(을) 먹다 - «zavod yo fabrikada orqali tirikchilik qilmoq» ma’nosida keladi. Misol: «**기름밥을 먹고 사는 놈이 언제 돈을 모으겠어요**» «Zavod orqali kun ko‘radigan kishi qachon pul yig‘ardi-yu.»

Shuningdek, koreys tilida **김치** bilan bog‘liq shunday ibora bor: **김칫국(물) 부터마시다**- sherigining fikrini hisobga olmasdan o‘z fikri bilan ish tutish, uni fikri bilan hisoblashmasdan o‘z qarori bilangina ish tutish ma’nosini ifodalaydigan mazkur ibora koreys xalqi kundalik turmushida keng qo‘llaniladigan iboralar sirasiga kiradi.

Misol: «**그렇게 김칫국물부터 마시다가 일이 뜻대로 되지 않으면 그 절망을 어떻게 감당하려고 그러나**» – Bunday sheriging bilan maslahatlashmasdan faqat o‘z qaroring bilan qilingan ish aytganingdek bo‘lmasa buning oqibatini qanday qilib bo‘yningga olasan?»

Koreys tilida **떡** bilan bog‘liq iboralar ham anchagina:

떡을 만들다 – ishni buzmoq.

Misol: «**별것도 아닌 녀석이 절 난체 만하다가 이겨 놓은 경기를 떡을 만들어 놓았다**»

Arziydigan biror narsani bilmaydigan bolapaqirlar o‘ziga ortiqcha baho berishgani sabab yutilayotgan musobaqani beliga tepishdi(buzib qo‘yishdi)

DOI: 10.36078/1653410384

그림의 떡 iborasi amalga oshmaydigan, yoki amalga oshishi qiyin bo‘lgan narsa haqida gapirganda ishlatiladi.

Misol: «**그 여자는 나에게 그림의 떡이야. 일찍 포기하는 게 좋아**» Bu qiz men uchun bir xomxayol. Undan ertaroq voz kechganim ma’qul.

누워서 떡먹기 – bajarilishi lozim bo‘lgan ishning osonligi haqida gapirilganda ishlatiladi.

Misol: «**그 정도 뛰어 넘는 것은 누워서 떡먹기이다**» Bunaqa yugurib o‘tish juda oson.

미역국을 먹다 – Aslida **미역국**-tug‘ilgan kunda tanovul qilinadigan ovqat, biroq ushbu so‘z ibora ko‘rinishida kelsa imtihondan yiqilish ma’nosini ifodalaydi.

Misol: «**올해가 취업 정년인데 마지막 시험에서 미역국을 먹었다**» Bu yil ish boshlamoqchiydim-u, imtihondan yiqildim-da.

구들장을 지다 – uyda ishsiz bekor yotmoq. Aslida, **구들장**- ondol(uyni isitish pechi)dagi tutun o‘tish yo‘li ustiga qo‘yiladigan katta tosh.

Misol: «**일이 틀어졌다는 소문이 나돌때부터 그는 구들장을 지고 살았다**» Ish qisqarishi haqidagi mish-mish chiqqanidan beri uyda bekor yotibdi.

놀부의 환생 – boshqalarning yaxshi narsalariga hasad qilish. Mazkur ibora «Xinbu va Nolbu» erkagidagi hasadgo‘y Nolbu obraziga ishoradir.

Misol: «**남이 잘 되는 꼴을 보지 못 하니 아무래도 그는 놀부의 환생인가 보다**»

«O‘zganing yutug‘ini ko‘rolmaydigan hasadchiligidan naq Nolbu tirilib kelgandek bo‘ldi».

마당을 빌리다 – so‘zma-so‘z tarjima qilinganda «hovlini qarzga olib turmoq» lug‘aviy ma’nosini bildirsa-da, iboraning ma’nosi ilgarigi zamonlarda kuyovning kelin xonadoniga borib to‘y bazmini o‘tkazishidan kelib chiqqan.

국수를 먹다 – so‘zma-so‘z «kuksuni yemoq» ma’nosini bildirsa-da ibora sifatida «turmush qurmoq» ma’nosida ishlatiladi. Bu xuddi o‘zbek tilidagi «qachon boshingni ikkita qilamiz» degan iboraga mos keladi.

Misol: «**이 봐 이 형 언제 국수를 먹여줄거야**? **너무 뜸들이지 말고 할거면 빨리 결혼해**»

Li Bua-I aka qachon uylanasiz? Uylanmoqchi bo‘lsangiz orqaga surmasdan uylana qoling-da.

DOI: 10.36078/1653410384

Koreys tili grammatikasining eng muhim xususiyati shundaki, har qanday gap bo‘lagi fraziologik birlik bo‘lib keladi. Bunga misol qilib koreys xalqining mashhur asarlaridan biri “Xinbu va Nolbu” ertagini keltirishimiz mumkin. Bu ertak XVII-XVIII asrlarda yozilgan. Asarda frazeologizmlarning ot+fe’l, fe’l+fe’l shakllari juda ko‘p uchradi. Ammo koreyslarda eng ko‘p tarqalgan frazeologizmlardan ot+fe’l shakli hisoblanadi. Asarda ham ushbu shakl ko‘p uchradi. Misol uchun:

«관청을 찾다» – hokimiyatni topmoq ya’ni hokimiyatga yo‘l olmoq

Ushbu ot+fe’l shaklidagi frazeologizmlarning asarda qo‘llanish jarayoniga e’tibor qaratib,ularni tahlil qilib ko‘rsak:

«그러자 놀부는 호랑이같이 날뛰며 호령을 하였다 » – Nolbu jahl otiga minib yo‘lbarsdek o‘kirdi. Bu yerda **«호령을하다»** – so‘zma-so‘z tarjima qilinsa «baqirib qichqirmoq» degan ma’noni ifodalaydi, biroq tarjimada «yo‘lbarsdek o‘kirdi» deb bersa ham bo‘ladi.

«흥부는 간절하게 애원 하였다» – Xinbu qattiq o‘tinib so‘rabdi.

«그러나 놀부 아내는 심보가 더고약 했다 » – Lekin Nolbuning xotinining yuragi judayam yomonlashibdi.

Bu yerda **«고약하다»** – so‘zma-so‘z tarjimada «xunik ko‘rinmoq», «yomon ko‘rinmoq» deb tarjima qilinadi, biroq ushbu o‘rinda tarjimani «yomonlashmoq» tarzida ham berish mumkin.

Ko‘pgina frazeologik birliklar erkin so‘z birikmalaridan farq qilmaydi. Rasmiy tuzilishiga ko‘ra ular jumlalar va iboralar bilan mos keladi. Koreys tilida biz jumla modeliga ko‘ra tuzilgan 15 turdagi frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin:

1. oddiy keng tarqalmagan taklif modeliga ko‘ra;
2. bir umumiy a’zoli sodda gap;
3. ikki umumiy a’zoli sodda gap;
4. murakkab gap;
5. qo‘shimcha ergash gapli murakkab gap;
6. ergash gapli murakkab gap (ustunlik band);
7. tobe sababli murakkab gap;
8. shart ergash gapli murakkab gap;
9. ergash gapli murakkab gaplar;
10. ergash gapli va darajali murakkab gaplar;
11. ergash gapli murakkab gap;

DOI: 10.36078/1653410384

12. ergash gaplar modelida;
13. bevosita nutqli gap modelida;
14. so‘roq gap modelida;
15. salbiy taklif modelida.

Har bir xalqning o‘ziga xos frazeologizmlarini tarjimada berishda o‘ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Ba’zan so‘zning o‘zi emas unga mos keluvchi ekvivalent tanlab olinadi. Koreys millatiga xos bo‘lgan frazeologizmlarning o‘rni beqiyos. Negaki, frazeologizmlarda shu xalqning o‘ziga xos urf-odat va madaniyati aks etgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Usmanova Sh. O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar: Filol.fan.nomz…diss. Toshkent. 1998.

2. **고영근**,**우리말 문법론**, **집문당** 2008.

3. **권욱 외**, **중학생이 되기 전에 꼭 읽어야 할 만화 국어 교과서** 2, **속담과 관용구**, **서울**: **스콜라**, 2009.

LEARNING HANJA (CHINESE CLASSIC CHARACTER) IN KOREAN LANGUAGE

Rojiboyev Ilkhomjon
3rd year student
Uzbekistan State World Languages University

Annotation. This article explores Hanja (classical Chinese characters), which are an integral part of the Korean language, culture, and history. By, the methods of learning the primary Hanja for foreigners are clearly and distinctly illustrated using examples.

Keywords: Hanja, Hangul, classic Chinese characters, Korean, Korean name.

Learning Hanja is the final stage of learning Korean and requires a lot of effort and hard work academically. Without any doubt, Hanja is in fact an intangible cultural heritage of humanity that embodies all of history, culture, tradition, and ethnography.

In South Korea, Hanja are used most frequently in ancient literature, legal documents, and scholarly monographs, where they often appear without the equivalent

 DOI: 10.36078/1653410384

Hangul spelling. Usually, only those words with a specialized or ambiguous meaning are printed in Hanja. In mass-circulation books and magazines, Hanja are generally used rarely, and only to gloss words already spelled in Hangul when the meaning is ambiguous. Hanja are also often used in newspaper headlines as abbreviations or to eliminate ambiguity. In formal publications, personal names are also usually glossed in Hanja in parentheses next to the Hangul. In contrast, North Korea eliminated the use of Hanja even in academic publications by 1949, a situation that has since remained unchanged. Hanja are often used for advertising or decorative purposes, and appear frequently in athletic events and cultural parades, dictionaries and atlases [1].

There is no royal road to learning characters, but the task is not as difficult as it may appear, either. The sheer number of hanja is daunting; large character dictionaries may run to 50,000 entries. But no one need learn anything like this ridiculous number, and fewer than 300 discrete graphs compose all others. A study in Taiwan showed that the most common 400 characters in use there comprised fully seventy-three percent of all written material [2,16].

Vocabulary is the foundation for foreign language learners to improve their language proficiency. In particular, Sino-Korean vocabulary forms the largest portion of Korean vocabulary, so it is helpful for learners at the intermediate level to understand Chinese characters. In Chinese characters – Hanja – each morpheme of Sino-Korean vocabulary has its own meaning, so after learning the basic meaning of the Hanja with the highest word-formation ability, it becomes possible to more easily expand Sino-Korean words related to and derived from their respective Chinese characters. But learners without a background in languages that use Chinese characters have difficulty learning Sino-Korean vocabulary because they don't have any knowledge of Hanja [3]

Before start to learning actual characters, you need to know how the Hanja system works. Only words of *Chinese* origin have corresponding Hanja characters. At first, there is no easy way to know precisely if a word (especially a noun) has a Chinese origin without looking that word up in a dictionary. Eventually, as you learn more Hanja characters, you will become more and more familiar with the words that can be represented in Hanja.

Most adjectives and verbs that end in –**하다** have corresponding Hanja equivalents. Most adjectives and verbs that do not end in –**하다** do not have corresponding Hanja equivalents.

For example:

DOI: 10.36078/1653410384

- **읽다**: to read | This is a verb without –**하다**. It has no Hanja equivalent. There is no way to represent this word using Hanja.
- **독서하다**: to read | This is a verb containing –**하다**. The Hanja equivalent of «**독서**» is . The following are the meanings of each character: = (**독**) reading, read = (**서**) writing, reading (Notice that the –**하다** portion cannot be represented using Hanja characters.)
- **똑똑하다**: to be smart | This is an adjective containing –**하다**. There is no Hanja equivalent [4].

Knowing if a word can be represented using Hanja characters or not gets significantly easier as you progress through your studies. The more characters you know (and know the meaning of), the better you will get at recognizing when a word can have a Hanja equivalent.

Having even a rudimentary understanding of Hanja characters can significantly help one's Korean studies – especially in the long run. As you learn more and more Korean vocabulary, the words will become increasingly more difficult and obscure. With some simple Hanja studying, it is possible to assume the meaning of a word even if you have never studied its meaning.

When you start learning Hanja, it is recommended to learn using simple words and related nouns.

= (**서**) = writing, reading

= (**점**) = store

While walking around the streets of Seoul, you can notice a word that you are not familiar with. Written on a sign is «**서점**». As you know «**서**» to mean «writing/reading», and «**점**» to mean «store», you deduce that the sign translates to «bookstore».

The reason this example is unrealistic is because a Korean learner would most likely know the word «**서점**» before learning the respective Hanja characters for « » and « ». Nonetheless, situations similar to this do occur when a learner has a good base in Hanja.

Drawing Hanja characters is a challenge at first. Luckily, most people start with the most basic characters (both in meaning and scripture), so the hill does not start very steep. In addition, the stroke order and pen movements when drawing Hanja characters are very similar to that of Hangeul characters.

DOI: 10.36078/1653410384

That being said, I would like to introduce you to the basic scripture rules of Hanja (or Chinese characters, for that matter). These rules will be sufficient for you to be able to write the characters introduced in this article. I have specifically chosen characters for this article that are simple, common, and can be used to teach the basic stroke-order rules.

Each Hanja character has an equivalent Korean name. These Korean names are used to indicate which specific character one is referring to in a conversation. The Korean name is usually composed of the Hangeul equivalent of the character being described by a Korean word. They don't need to be memorized, although most of them are fairly intuitive.

= 대 = Big

(Korean name: 큰 대)

One of the most common Hanja characters that you will see in Korea. When ordering at restaurants, you will often see this symbol (in addition to the other characters in this lesson) on a menu to distinguish between the different sizes of dishes you can order. Also commonly seen in stores/supermarkets to differentiate between different sizes of items.

So‘nggi o‘n yilliklarda zamonaviy jamiyat o‘z tarixida eng qiziqarli voqealarga boy davrlaridan birini boshdan kechirdi. Bu esa shubhasiz tilda o‘z aksini topadi. Chunki jamiyat gapiradigan til u bilan rivojlanadi va o‘zgaradi. Zamonaviy koreys tilini rivojlantirishning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bu asosan ko‘p miqdordagi yangi so‘zlarning kirib kelishi bo‘lib, bunda asosan xorijiy so‘zlardan foydalanish va o‘zlashtirish holati kuzatiladi.. Ko‘pincha, bu jarayon ingliz tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar misolida kuzatiladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, umuman koreys tilining so‘z boyligi va ommaviy axborot vositalari (ommaviy axborot vositalari) tilidagi o‘zgarishlar faqat chet tillaridan o‘zlashtirish jarayonlari bilan chegaralanmaydi; zamonaviy o‘quvchilar tilida ko‘plab terminlar (ularning ko‘plari atamalar turkumidan oddiy so‘zlar sinfiga o‘tadigan), vulgarizmlar, jargon, jargonlar va boshqalarning paydo bo‘lishiga guvoh bo‘lishmoqda. Ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan yangi so‘zlar va tuzilmalarning rivojlanishi va ularning ma'nolarining manba tilidan yoki manba uslubi deb ataladigan narsadan tilning asosiy leksik fondiga o‘tishini va bularning yangi ma'nolarini shakllantirishni ko‘rib chiqadigan lingvistik o‘zgarishlarga bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalari til holatining eng mobil "konservatori" bo‘lganligi sababli, tadqiqot uchun material manbai sifatida ommaviy axborot vositalarini tanlash mantiqan to‘g‘ri xisoblanadi. Bir tomondan, barcha so‘nggi

 DOI: 10.36078/1653410384

til o‘zgarishlari ommaviy axborot vositalarining matnlarida aks etadi, boshqa tomondan, ommaviy axborot vositalari ko‘pincha tillarning o‘zgarishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi, bu biz tadqiq qilish uchun tanlagan mavzuning dolzarbligi uchun asosdir. Tilning o‘zgarishi har doim tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelgan, chunki bu sohadagi ishlar juda katta amaliy ahamiyatga va dolzarblikka ega; bundan tashqari, olimlar hech qachon bunday tadqiqotlar uchun materiallar yetishmaslik muammosiga duch kelmaydi. Ushbu tadqiqotning maqsadi tilning leksik darajasi edi, chunki ushbu darajadagi barcha darajadagi qarzlarni ko‘rib chiqish mumkin emas. Bundan tashqari, statistika shuni ko‘rsatadiki (til sohasidagi har qanday statistik ma'lumotlarning yaqinlashishini hisobga olgan holda) so‘zlar va iboralar ko‘pincha qarzga olinadi va frazeologik va sintaktik iboralar juda kam uchraydi, garchi yaqinda vaziyat biroz o‘zgargan bo‘lsada sintaktik (tarkibiy) qarzlar endi noyob narsa emas.

Koreys tilining rivojlanish tarixi chet tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar bilan boyitilganligi Koreya mamlakatining iqtisodiyoti rivojlanayotgan va rivojlangan davr bilan bog‘liq. Biroq, lingvistik o‘zlashtirishning sabablari orasida ekstralingvistik va boshqalar mavjud. Lingvistik ensiklopedik lug‘atda o‘zlashtirish "lisoniy aloqalar natijasida bir tildan ikkinchisiga o‘tkazilgan chet tilining elementi (so‘z, morfema, sintaktik qurilish va boshqalar), shuningdek, elementlarning bir tildan boshqasiga o‘tish jarayonidir.

Chet tilidan o‘zlashishning yana bir sababi - ijtimoiy-psixologik – ekstra va intralingvistik sabablar orasida oraliq pozitsiyani egallashidir. Gap shundaki, ba'zida manba tilida ma'lum bir ma’noni qabul qilish retseptor tiliga qaraganda ma'no jihatidan aniqroq, qisqa, etimologik jihatdan "ravshan" bop keladi va bu ham chet tili so‘zini o‘zlashtirish va keyin uni almashtirish uchun sabab bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan: **‘일절’과 ‘일체’를 혼동하여 쓴 대표적인 예로 ‘안주 일절’이라는 표현을 들 수 있다. 많은 음식점에서 ‘모든 안주를 모두 취급한다’는 뜻으로 ‘안주 일절’이란 표현을 사용하곤 한다. 그러나 ‘일절’이라는 단어는 ‘아주, 전혀, 절대로의 뜻으로, 흔히 행위를 그치게 하거나 어떤 일을 하지 않을 때 쓰는 말’이다. 일절의 뜻을 정확하게 이해하고 ‘안주 일절’이라는 표현을 파악하자면, 안주를 취급하는 음식점과는 어울리지 않는 표현이라는 것을 알 수 있다.**

Zamonaviy sivilizatsiyaning shakllanishi xabarlarni ommaviy ravishda yaratish texnologik imkoniyatining paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liqdir (bosma ixtiro - matbuot). Ilm-fan dunyoga press-relizlarni yaratish uchun majburiy usulni taqdim etdi. Shunday qilib, chet tilidagi lug‘at jamiyatda qizg‘in munozaralarga sabab bo‘ladi.

DOI: 10.36078/1653410384

Neologizmlar yangi predmetlar va tushunchalar bilan birga keladi. Shu bilan birga, o‘zlashtirish uchun qulay shart-sharoit sifatida xalqlar - ona tillarida so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi ozmi-ko‘pmi yaqin siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar xizmat qiladi. Ma'lumki, o‘zlashtirilgan so‘z, agar uning leksik tizimida o‘zlashtirish uchun zarur shartlar mavjud bo‘lsa, tilda osonroq mustahkamlanadi. Bunga tilning istalgan tushunchasini aniq yoki batafsil yetkazib berishi, uning turli xil so‘zlarga qo‘shilishi bilan uning semantik ma’nolarini farqlashi, so‘zning semantik tuzilishini soddalashtirishi kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. T.Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov O‘zbek xalq maqolari. T., 2005. B.5
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. T., 2008
3. Soatov B.A. O‘zbek xalq maqollarining janr va she’riy xususiyatlari. T., 1990

O`ZBEK TILIDA SOMATIK IBORALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Xamidova Mohchehrabonu Ulug`bek qizi
Sharq filologiyasi (koreys tili) fakulteti 3-bosqich talabasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. In the process of learning a language, students often have difficulty understanding and using phrases. It is well known that expressions are inextricably linked with the spiritual culture, customs, professions, living conditions, aspirations, and attitudes of the people who speak the language. Phrases are important tools for creating imagery and expressiveness, and they serve to increase the expressive power of artistic, political, and journalistic texts. This article deals with the phraseology, history and the formation of phraseology, the use of somatisms in phraseology in modern linguistics.

Keywords: somatism, expression, phraseology, phraseological units.

Annotatsiya. Til o`rganish jarayonida talabalar doimo iboralarni tushunish va qo‘llash borasida qiyinchilikka duch kelishadi. Ma’lumki, somatik iboralar til egasi bo‘lgan xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog‘liqdir. Iboralar obrazlilik va ekspressivlikni

 DOI: 10.36078/1653410384

vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo‘lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning frazeologiya sohasi, uning shakllanish tarixi, somatizmlar ishtirok etgan iboralarning zamonaviy tilshunoslikda o‘rganishga oid o‘ziga hos jihatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: somatizm, ibora, frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologizm.

Har bir xalq tilidagi maqol va iboralar asrlar davomida juda katta hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan kelajak nasllarga meros qilib qoldiriladi. Shu sababdan ham ular bebaho meros hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xalqning benihoya boy tarixiy-madaniy, etnik-ma’naviy tajribalari, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, ya’ni uning o‘zigagina xos olamning lisoniy manzarasi til vositasida shakllangani kabi mazkur tajribalarning barchasi aynan xalqning tilida o‘z ifodasini topadi.

Somatik iboralar har bir tilda muhim o‘rin tutadi. Ular har bir tilda keng qamrovli guruhga kiradi. Ularning miqdori haqiqatda ham ko‘p. O’zbek tillarida somatizmlar yuqori samaradorlikka egadir. Har bir tilning frazeologik luga’tlaridan bir nech mingdan ko‘proq somatizmlar to‘plangan va ularning keng qamrovli chog‘ishtirma tahlili olib borilmoqda. Somatik frazeologizmlar inson tana a’zolarining ramzi hisoblanadi hamda keng tarqalgan an’analardan guvohlik beradi. Chog‘ishtirilayotgan tilda muqobil variantlariga ega bo‘lmagan, tillararo taqqoslashda ko‘p tomonlama madaniy tafovutlarni yuzaga keltiradigan bir qator madaniy o‘ziga xosliklarga ega somatik frazeologizmlar bor. O’zbek tilida tana a’zolari bilan bog‘liq, xalqning urf-odatlari va an’analarini ifodalaydigan ko‘plab frazeologik birliklar mavjud: bosh-ko‘zingdan sadaqa, boshini ikkita qilmoq, bosh omon bo‘lsa do‘ppi topiladi, qo‘lini halollamoq. Barcha tilidagi somatik iboralarning kelib chiqishi hayotning turli sohalariga borib taqaladi. Ular xalqlarning turmush sharoiti, o‘tgan asrlardagi urf-odatlar va g‘oyalar bilan bog‘liq. Har bir xalq o‘z obrazi hamda obrazli iboralarini o‘ziga tanish bo‘lgan hodisalar va hayot sohalaridan, jumladan, tabiat elementlaridan, hayvonot va nabotot olamidan, iqtisodiy hayotning qadimiy shakllaridan, dehqonchilik, ovchilik, baliqchilik, kemasozlik, savdo-sotiq va ayriboshlash hamda eng asosiysi, insonlarning kundalik hayotdagi faoliyatlaridan oladi.

Tilimizda ko‘z komponentli ko‘z qiri, ko‘z qorachig‘i, ko‘z(i)ning qorachig‘i, ko‘zga dori singari ot hamda ko‘zi bejo, ko‘z ilg‘amas, ko‘zi taka-puka, ko‘z ochib

 DOI: 10.36078/1653410384

koʻrgan, koʻz qorachigʻidek, koʻzini baqraytirib, koʻz qorasidek, koʻz qiri bilan, koʻz oʻngida, koʻz tagidan kabi ravish frazeologizmlar shakllangan.

Koʻz komponentli somatik frazeologik birliklar matnda oʻziga xos sintagmatik xususiyatlarni namoyon qiladi. Masalan, omonim frazeologik birliklarning koʻpchiligi ikki maʼnoni anglatadi. Sh.Rahmatullayevning "Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati" da koʻz ilgʻamas iborasi omonim ibora sifatida izohlangan: Koʻz ilgʻamas I. Bilinar-bilinmas, mayda. II. Cheksiz, poyoni koʻrinmaydigan. A.Qahhor "Sarob" romanida iboraning bilinar-bilinmas maʼnosidan foydalangan: Etagini koʻz ilgʻamaydigan rang-barang, yirik-yirik yer kartalari; bogʻlar, chorbogʻlardagi, xiyobon, koʻcha va yoʻllardagi sadarayhonday qulf urib, namozshomgulday tarvaqaylab, gulixayridek boʻyga zeb berib oʻsgan daraxtlar. H.Olimjon esa bu omonim frazemaning ikkinchi maʼnosini qoʻllagan: Sening koʻz ilgʻamas maydonlaringda, Jahannam qoʻrqajak janglarni koʻrdim.

Sh.Rahmatullevning frazeologik lugʻatida qoʻl komponentli 70 ga yaqin iboraning maʼnosi izohlangan. Ularning ayrimlari insonning idrok etishi bilan bogʻliq boʻlib, uning ruhiy olami va his-tuygʻularini ifodalaydigan iboralar sirasiga kirsa, baʼzilari milliy dunyoqarash meʼyorlariga borib taqaladi. Ana shunday iboralarni shakllantiruvchi tayanch soʻz sifatida qoʻl somatizmi leksemalar bilan birikib, turli leksik-grammatik guruhlarga mansub frazemalarning shakllanishida ishtirok etadi. Somatik komponentli frazemalar paradigmasini aksariyat hollarda ikki komponentli ot+feʼl tuzilishiga ega boʻlgan feʼl iboralar tashkil etadi: qoʻl bermoq, qoʻlga olinmoq, qoʻlga kirmoq, qoʻlga olmoq, qoʻlga tegmoq, qoʻlga tushmoq, qoʻldan bermoq, qoʻldan ketmoq, qoʻldan chiqmoq kabi. Bunda feʼl grammatik tayanch komponent vazifasini oʻtasa, qoʻl soʻzi semantik tayanch komponent boʻlib, frazemalarning mantiqiy asosini belgilaydi.

Masalan, ikki komponentli qoʻlga olmoq iborasi Sh.Rahmatullayev lugʻatida omonim ibora sifatida izohlangan: 1. Oʻz ixtiyoriga oʻtkazmoq. 2. Qoʻqqisdan hujum qilib bosib olmoq (rasmiy). 3. Hibs qilmoq. Qamash maqsadida tutmoq (rasmiy). 4. Oʻz xohishiga boʻysunadigan qilmoq . Oʼzbek tilida esa qoʻlga olmoq iborasining faqat ikki maʼnosi izohlangan: 1. Pora berish, aldash va sh.k. yoʻllar bilan oʻziga moyil qilmoq. 2. Ushlab, tutib olmoq, asir olmoq, bandi qilmoq, qamamoq. Qoʻl komponentli iboralar paradigmasida "ot+sifat" yoki "sifat+ot" modelidagi sifat iboralar faoldir: qoʻli baland, qoʻli band, qoʻli boʻsh, qoʻli gul, qoʻli yengil, qoʻli kalta, qoʻli ochiq, qoʻli egri, qoʻli qisqa kabi. Soʻzlashuv nutqida keng qoʻllanadigan, ichki sintaktik qurilishi

 DOI: 10.36078/1653410384

gapga teng bo‘lgan, insonning bir necha sifatlarini aks ettiruvchi qo‘li siniq va qo‘li shirin va h.k.

Shu bilan birga o‘zbek tilida yurak komponentli iboralar ham mavjud. Yurak umumturkiy so‘z bo‘lib, uning paradigmasida fe’l (yuragi g‘ashlanmoq, yuragi qinidan chiqmoq), sifat (yuragi qon, yuragi qora, yuragi bezovta) va ot iboralar (yurak o‘ynashi, yurak g‘ashi, yurak betlash) shakllangan. Bu birliklar ichida fe’l iboralar nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi.

Yurak komponentli fe’l iboralarning aksariyati ikki komponentli ot+fe’l modeliga ega: yuragi achidi, yuragi betlamadi, yuragi bo‘shadi, yuragiga tugmoq, yuragidan chiqmoq, yuragidan urmoq, yuragini yozmoq, yuragini ochmoq kabi. Bunda ot turkumidagi yurak somatizmi jo‘nalish, tushum va chiqish kelishigi qo‘shimchalarini qabul qilib, frazemalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilidagi ko‘z, qo‘l va yurak komponentli somatik iboralarning asosiy uzual uslubiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratishimiz mumkin:

1. Nominativlik vazifasi. Frazeologik birliklarni ma’no turlari jihatidan nomlovchi iboralar va ifodalovchi iboralarga ajratib tasniflash Sh.Rahmatullayevga mansub. Darhaqiqat, qo‘l ko‘tarmoq iborasi ma’nosining bir yo‘nalishida tasviriylik yo‘qolib borgan va tarafdorlik, rozilik ma’nosi saqlangan: Ne deb aytar ul baobro‘ anjuman, Qo‘l ko‘tarsin ushbu holga rozilar (E.Vohidov. Bu zamonning g‘azali).

2. Nutqni ixchamlashtirish vazifasi. Iboralarning ayrimlari ma’noni ixchamlashtirish – lakonizatsiyalash xususiyati bilan ajralib turadi. Predikativ so‘z birikmasi vazifasida kelgan iboralar, ayniqsa, ixchamlashish xususiyatiga ega. Masalan, ko‘ngilchanlik tufayli botina olmaslik, ayagani tufayli tashlab keta olmaslik, ko‘ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik holatlari ko‘zi qiymadi iborasi bilan; qattiq cho‘chimoq, qo‘rqmoq yuragim yorildi bilan; ichida yig‘ilib qolgan hasrat-nadomatini aytib, yig‘lab, ruhan yengillashmoq holati yuragi bo‘shadi bilan; nimadandir xavfsirab, biror ishni qilishga jazm qila olmaslik qo‘li bormadi yoki yuragi chopmadi, yuragi betlamadi iboralari bilan ixcham tarzda ifoda etiladi: Qayta iskalanmoqqa yuragi chopmay, alanglab ilonni qidirardi. Ammo u yerga singganday g‘oyib bo‘lgandi (N.Norqobilov. Tog‘dagi yolg‘iz odam).

3. Obrazli ifodalash vazifasi. Bunday vazifani ko‘pincha, turg‘un o‘xshatishlar yoki komparativ frazeologik birliklar bajaradi. Masalan, ko‘z qorachig‘iday, ko‘zday yaqin, ko‘z yoshiday, besh qo‘lday ayon, otning kallasidek yurak, ko‘zi o‘tdek yonmoq, yuragini sichqon kabi kemirmoq, yuragini kalamushdek tirnamoq, yuragi qaynagan

 DOI: 10.36078/1653410384

oshdek shopirmoq, yuragi qaynab ketgandek boʻlmoq kabi frazemalar tarkibidagi oʻxshatish etaloni fikrni yana ham obrazli ifodalashga xizmat qiladi.

Adabiy tilda qoʻrqmas, dovyurak shaxslarga nisbatan yuragi katta, otning kallasiday yurak, otning yuragiday yuragi bor kabi frazeologik birliklar qoʻllanadi. Bular tarkibidagi “otning yuragi”, “otning kallasi” oʻxshatish etalonlari botirlik semantik belgisini yana ham kuchaytirgan: Biz sizni otning yuragiday yuragi bor deb oʻylardik... (O.Yoqubov. Adolat manzili); Qoyilman bu akajonimga! Otning kallasidek yuragi bor ekan ammo! (O.Yoqubov. Adolat manzili).

4. Baholash vazifasi. Baho funksiyali iboralar yordamida muallifning obrazlarga, asar voqeligiga, personajlarning bir-biriga ijobiy yoki salbiy munosabati ifodalanadi: – Juda boʻladi-da! Shunday qoʻli gul ustalarimiz bor, boplab tashlaydi (T.Murod. Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi); – Shundoq, bolam. Qoʻli egri. Harom odam (S.Ahmad. Jimjitlik).

5. Emotsionallik vazifasi. Oʻzbek tili frazeologik tizimida iboralarning katta guruhi soʻzlovchining shodligi, gʻazabi, nafrati, oʻkinchi, qoʻrquvi, kinoyasi, jirkanishi, loqaydligi, befarqligi singari emotsional munosabatlarni ifodalab keladi. Kelib chiqishi jihatidan jest va mimika bilan bogʻliq ayrim iboralar kishilarning ichki kechinmalarini ifodalash va shu asosda emotsional vazifa bajarish uchun xizmat qiladi: qoʻl siltamoq, qoʻlini choʻzmoq, koʻzini oʻynatmoq, qoʻlini paxsa qilmoq, qoʻl uchida koʻrsatmoq, qoʻlini bigiz qilmoq, koʻzining ola-kulasi chiqmoq, koʻzi xonasidan chiqmoq, qoʻlini arra qilmoq, bosh barmogʻi bilan koʻrsatkich barmogʻini bir-biriga ishqalamoq, koʻz qirini tashlamoq kabi. Masalan: – Bor, u qoʻlini bigiz qilib tashqari eshikni koʻrsatdi. – Chiq bu yerdan! (O.Yoqubov. Muqaddas); – Ogʻzingga qarab gapir, bola! – Boyagi “arvoh” qoʻlini paxsa qildi (Oʻ.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar).

6. Ekspressivlik vazifasi. Ibora tarkibidagi fonetik, leksik va ayrim grammatik oʻzgarishlar undagi ekspressivlik darajasining kuchayishiga olib keladi: a) fonetik oʻzgarish tufayli: yuragi qora – yuragi qop-qora, yuragi oq – yuragi oppoq; b) grammatik oʻzgarish tufayli: koʻzi qiymaydi – koʻzlari qiymaydi – koʻzginasi qiymaydi; koʻzining paxtasini chiqarmoq – koʻzlarining paxtasini chiqarmoq; v) leksik oʻzgarish tufayli: koʻzi ochildi – aql koʻzi ochildi, koʻzi toʻrt boʻlib – ikki koʻzi toʻrt boʻlib kabi.

Xulosa oʻrnida ta’kidlash joizki, somatik frazeologizmlar vositasida har bir xalqning urf-odatlari, an’analari va kundalik turmushidagi mushtarak tomonlar ochib beriladi. Shu jumladan, frazeologiyaning muhim qismini somatik frazeologizmlar tashkil qiladi. Ularning genealogik jihatdan birligi somatik Fblar miqdori, nutqdagi

 DOI: 10.36078/1653410384

ma’noviy-vazifaviy xususiyatlari, va tarkibidagi somalarning umumiyligida namoyon bo‘ladi. Somatik frazeologizmlarni ifodalashda bosh, ko‘z, qo‘l va oyoq somalari faol qatnashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdramanova S. Processing of English idioms with body part components by native speakers of Turkish learning English with intermediate level of proficiency. Thesis for the Doctor of Philosophy Degree. Istanbul, 2012. 142 p.
2. Aktaş T. Tatar Türkçesindeki “Baş” Ve “Baş”ta Bulunan Organ Adlari Ile Kurulmuş Deyimler Ve Bu Deyimlerin Türkiye Türkçesindeki Şekilleriyle Karşilaştirilmasi. Doktora tez projesi. Konya, 2013. 189 sayfa.
3. Kaçarova N. Türkçede Göz ile Başlayan Deyimler // Türk Dili. Sayı: 650. 2014. 129-133 sayfalar.

KOREYS MAQOLLARIDA AYOL KONSEPTINING IFODALANISHI

Xodiyeva Hilola Sobiriddin qizi
Lingvistika(koreys tili) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. Proverbs are an invaluable gem of folklore, reflecting the wisdom of the people, the spirit of the nation, its culture. The study of proverbs, especially folklore, is very important today. This "gem" attracted not only linguists, but also representatives of various other fields, including ethnographers, culturologists, folklorists, literary critics, linguists, psychologists, philosophers and others.

Keywords: Korean proverbs, dictionary of Korean proverbs, definitions of Korean proverbs, history of Korean proverbs, woman.

Annotatsiya. Maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining bebaho gavharidir. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o‘rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu «gavhar» nafaqat tilshunoslar, balki boshqa turli soha vakillari, jumladan, etnograflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, psixologlar, faylasuflar va boshqalarni ham qiziqtirib qo‘ygan.

 DOI: 10.36078/1653410384

Kalit so‘zlar: Koreys maqollari, koreys maqollari lug‘ati, koreys maqollarining ta’riflari, koreys maqollari tarixi, ayol.

Maqollar – bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig‘isi, shodligi va sevinchi, qayg‘usi va ovunchi, bu xalq haqiqati, uni to‘g‘ri yo‘lga eltuvchi mayoqdir. «Xalq asrlar mobaynida to‘plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho meros namunasi hisoblanadi. Ular zamonlarosha xalq donishmandligining muhim manbai sifatida, og‘izdan – og‘izga o‘tib, sayqallanib kelgan. Maqollar xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari singari har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy – madaniy xususiyatlari va uning qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy me’yor va prinsiplarini, millatning ruhiy holatini to‘liq ifodalaydi».

Hozirgi zamon tilshunosligida, maqollarda til birliklarining semantikasi, muayyan konseptning lingvomadaniy va semantik xususiyatlarining tadqiqi juda ko‘plab tadqiqot va ilmiy izlanishlarning asosiy mavzusi bo‘lib hisoblanadi. Oxirgi o‘n yillikda so‘z va matn o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, fikr ifodasining turli vositalari, so‘z yasalishi va grammatik ma’no, leksik birliklari ham ko‘p o‘rganilmoqda. Shuningdek, lingvistikaning yangi yo‘nalishi – lingvomadaniyat til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik ham e’tibor markazida. Lingvomadaniyatshunoslikning markaziy obyekti konsept tushunchasi bo‘lib, konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo bo‘la boshladi va 90-yillarga kelib keng qo‘llanila boshlandi. Bu atama aslida lotincha «conceptus» so‘zidan olingan bo‘lib «tushuncha» ma’nosini ifodalaydi. Ingliz tilida - concept, rus tilida - понятие (har ikki tilda - tushuncha) atamasi bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan arashatirib yuborila boshlangach, uning tom ma’nodagi mazmunini aniq shakillantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. Lingvistik ensiklopedik lug‘atda konsept atamasiga quyidagicha ta’rif beriladi: «konsept bu-so‘z ma’nosi kabi tushuncha bo‘lib,faqat bog‘lanishlar nuqtaiy nazaridan farqlanadi; ma’no-til tizimida; tilshunoslikda tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo‘ladi»[80]

Maqollarning semantik doirasi juda keng bo‘lgani bois ham jamiyatning har bir sohasida qo‘llanilishi mumkin. Bu borada koreys va o‘zbek xalq maqollari ma’no

[80] Лингвистический энциклопедический словарь.1990

 DOI: 10.36078/1653410384

jihatdan ham, qo‘llash jihatdan ham bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. O‘zbek va koreys tilidagi maqollarni hajm jihatidan o‘rganib borish asnosida aynan ayol konsepti ifodalangan maqollarni ko‘proq uchratish mumkin.

Koreys tilida ayol konsepti ifodalangan maqollar tadqiqini o‘tkazar ekanmiz ayol siymosi ijobiy va salbiy qiyofada aks ettirilgan holatlariga guvoh bo‘ldik va biz ularni ikki guruhga ajratgan holda qiyosiy o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Dastlab ijobiy ma’noni ifodalagan maqollar tahliliga to‘xtalamiz.

1. Koreys xalq maqoli: «**시집 울타리 귀신이 되어야 한다**»
2. **여자는 한번 시집을 가면 무슨 일이 있어도 시집에서 끝까지 살아가야 한다는 말**

O‘zbek tilida tarjimasi*: «Qiz bola turmushga chiqqandan keyin, nima bo‘lishidan qat'i nazar, oxirigacha nikoh bilan yashashi kerak»* ma’nosini beradi.

Bu maqol orqali oilaning muqaddasligi, har qanday vaziyatda ham uni saqlab qolish lozimligi tasvirlanadi. Ammo koreyscha maqolning o‘zbek tilidagi tarjimasini yoki ma’nosini har doim ham o‘zbek tiliga tayyor holda ishlata olmaymiz.

O‘zbek tilida ekvivalenti: *«chiqqan qiz chig‘iriqdan nari», «suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashash kerak»* maqollaridan foydalansak bo‘ladi.

3. Koreys xalq maqoli: «**남자는 이레 굶으면 죽고 여자는 열흘 굶으면 죽는다**»

어려움에 처했을 때, 여자가 남자보다 더 잘 견딜 수 있음을 비유적으로 이르는 말

O‘zbek tilida tarjimasi: «*Qiyinchiliklarga duch kelganda ayolning erkakdan ko‘ra chidamliroq bo‘lishi xususidagi metafora»*

O‘zbek tilida ekvivalenti: *«Ayolning joni qirqta»*

Bu maqolda ayol kishining matonati, irodasi ta’riflanga. Ayol har qanday qiyinchiliklarga sabr-bardoshli.

4. Koreys xalq maqoli: «**홀아비는 이가 서 말이고 홀어미는 은이 서 말이라**»

DOI: 10.36078/1653410384

여자는 남편을 잃고 혼자 살아도 알뜰하게 살면서 은붙이를 모으지만, 남자는 아내를 잃고 혼자가 되면 이가 바글거릴 정도로 집안일을 돌보지 않는 수가 많다는 말.

O‘zbek tilida tarjimasi: «*Ayol turmush o‘rtog‘idan ayrilgandan keyin yolg‘iz yashasa ham tejamkor yashaydi, kumush taqinchoqlarni yig‘adi. Erkak esa xotinidan ayrilib, yolg‘iz qolsa, uy yumushlarini ham eplay olmay,qiynalib qoladi»*

Maqolning ma’nosi shuki, ayol kishi oilaning fayzi, uyning farishtasidir. U turmush o‘rtog‘idan ajralib qolgan holatda ham qiynalmay yashashi mumkin, biroq erkak kishi ayolsiz yashay olmaydi.

Qadim-qadimdan beri ishlatilinib kelayotgan bu maqolning o‘zbekcha ekvivalenti sifatida: *«Onasiz yetim qul yetim, otasiz yetim gul yetim»* maqolini keltirish mumkin. Ba’zan maqollarning ma’nosi o‘zbek tiliga mos kelmasligi mumkin. Bunday holatda ekvivalenti tanlab olinadi.

5. Koreys xalq maqoli: **«부잣집 맏며느릿감이다 [맏며느리 같다] »**

의젓하기는 하나 마음이 교만한 여자를 비유적으로 이르는 말.

O‘zbek tilida tarjimasi: «*Har qanday holatda ham mag‘rur turib, nomardga aslo bo‘yin egmaslik».*

Ayol, qiz obrazi har bir jamiyatda millat g‘ruri, sha’ni, or-nomus timsoli hisoblanadi. Tarixdan bilamizki ne-ne ayollarimiz o‘zlarining mardligi, shijoati bilan qanchadan-qancha erkaklarni yer tishlatgan.

Qadim-qadimdan beri ishlatilinib kelayotgan bu maqolning o‘zbekcha ekvivalenti sifatida: *«Sust erkakdan mard ayol afzal»* maqolini keltirish mumkin. Bu yerda ham maqolining ma’nosi o‘zbek tiliga unchalik mos kelmayapti. Shu bois uning ekvivalenti tanlab olindi.

6. Koreys xalq maqoli: **«사정이 많으면 한 동리에 시아비가 아홉»**

이 사람 저 사람 사정을 봐주다 보니 한 동네에 시아버지가 아홉이나 되었다는 의미로, 지나치게 남의 사정만 봐주다가 도리어 제 신세를 망치게 된다는 말.

O‘zbek tilida tarjimasi: « *kelin bir mahallada to‘qqizta qaynota bo‘lsa, barchasining, hizmatini qilib, hol-ahvoliga e’tibor qaratishi lozim».*

DOI: 10.36078/1653410384

Bu yerda ayol kishi turmush qurganidan so‘ng kelin bo‘lib borgan xonadonidagi barcha oila a’zolarining ko‘nglini birdek olib, ularning hizmatini qilishi lozimligi haqida gap boradi.

Koreys mintalitetida qadimda ishlatilgan bu maqolning o‘zbekcha ekvivalenti sifatida: *«seplik kelin olma, eplik kelin ol»* maqolini keltirish mumkin. Bu yerda ham maqolining ma’nosi o‘zbek tiliga unchalik mos kelmaganligi bois uning ekvivalenti tanlab olindi.

Yuqoridagi maqollarning barchasida koreys millatining qiz, ayol konsepti haqidagi ijobiy fikr mulohazasi, tasavvuri yoritilgan. Har ikkala tildagi umumiy ma’nosi shuki, ayol sabr timsoli bo‘lib, bu maqollar koreys va o‘zbek xalqining turli xil obrazidagi maqollari bo‘lishiga qaramay bir xil ma’noni anglatib, ayollar mavzusidagi maqollarning semantik xususiyatlari aks ettirilib, maqollarning qo‘llash ma’nosi bir xil ekanligini ko‘rsatilgan. Quyida ayol konsepti salbiy ma’noni ifodalab kelgan maqollar tahlilini ko‘rib chiqamiz:

1. Koreys xalq maqoli: «**계집[81]은 질투 빼면 두 근[82]도 안된다[83]**»

이 속담에 남자보다 여자가 더 질투가 많다는 고정관념이 들어 있다. 여자의 마음이 매우 쉽게 변한다고 본다. 결국 두 근도 안된다는 말은 ‘여자에게서 질투를 빼면 남는 것이 별로 없다’ 또는 ‘여자는 질투밖에 없고 여자는 질투 그 자체다’라는 뜻입니다

O‘zbek tilida tarjimasi: so‘zma – so‘z «qiz boladan hasadni olib tashlasang, ikki 근 gin o‘lchov birligi ham bo‘lmaydi», deb ya’ni «qiz bolaning hasadi bo‘lmasa, qadri ham bo‘lmaydi», masalan,. Ushbu maqolda qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan hasadgo‘y bo‘ladi degan noto‘g‘ri tushuncha bor bo‘lib, qiz bolani qalbi tez o‘zgaradi va oxir-oqibat o‘lchovga ham yaramaydi, qiz bola faqat hasaddan iborat degan qadimda noto‘g‘ri fikr bo‘lgan.

2. Koreys xalq maqoli: «**미인이 못난 여자의 질투를 받게 된다**»

---

[81]계집 - koreyslarda qiz yoki ayollarni masxara qilib aytiladigan so‘z, yoki turmushga chiqqan ayol ma’nosidagi so‘z.

[82]근 kin (kor. o‘lchov bir. = 0, 6 kg go‘sht yoki 0, 375 kg meva va sabzavotlar uchun).

[83]**정조진**. **한국의 속담 대사전**. -**경기도 파주시 교하읍 문발리 파주출판도시**, 2006, 147 **쪽**.

DOI: 10.36078/1653410384

못생긴 여자는 예쁜 여자에게 멸시를 당하기 때문에 질투심을 가지게 된다는 뜻

O‘zbek tilida manosi: *«go‘zal qiz hunuk qizni hasadini oladi», ya’ni go‘zal qizlarga nisbatan hunuk qizlar doim nafrat bilan qarab hasadgo‘ylik qilishadi degan ma’no bilan birga o‘zida bo‘lmagan yaxshi xislat yoki holat uchun boshqlarga nisbatan hasad hissi bo‘ladi degan ma’noni ifodalaydi*

3.Koreys xalq maqoli: **«사랑하는 계집이 있으면 아내는 질투하게 된다»**

남편이 외부 여자와 간통을 하게 되면 그 아내는 당연히 질투하게 된다는 뜻.

O'zbek tilida ma'nosi: *«sevadigan juvon bo‘lsa, ayol hasad qiladi», deb ya’ni agar turmush o‘rtog‘i begona ayol bilan yaqin munosabatda bo‘lsa, xotini rashk qiladi degan ma’noni anglatadi. Ushbu maqolda biz hasad so‘zini faqat hasad emas, rashk deb tarjima qilsak bo‘ladi chunki, er va xotin munosabati bo‘lgani uchun ushbu maqolda rashk ma’nosini berayapdi.*

4.Koreys xalq maqoli: **«시앗은 질투 먹고 산다»**

시앗은 서로 헐뜯고 질투하는 것이 일이라는 뜻.

O'zbek tilida ma'nosi: *«Erkak kishining ikkita xotini bo‘lsa, doim bir-biriga zarar yetkazishga urinib, hasadgo‘ylik qilib yashaydi degan maqoldir. Ushbu maqolda «*질투 먹다- *hasadni yemoq» deb tarjima qilinadi. Agar so‘zma - so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak, hasad qilmoq degan ma’noni anglatadi. Faqat bir erkakni ikki xotini o‘rtasidagina emas, bir manfaat yo‘lidagi ikki shaxs bir-biriga hasad qiladi, degan ma’noni ham ifodalaydi ».*

5. Koreys xalq maqoli: **«여자는 남편 옆에 암코양이만 있어도 질투한다»**

남편 있는 여자는 자기 남편 주위에 있는 여자들을 질투하게 된다는 뜻.

O'zbek tilida ma'nosi: *«ayol erini oldida urg‘ochi mushuk tursa ham rashk qiladi»* deb tarjima qilinib *«Erini rashk qilmaydigan ayol yo‘q»* deb talqin qilinadi.

Mazkur maqollarda koreys xalqi orasida ko‘p uchraydigan qiz, ayol obrazi, ularning jamiyatda tutgan o‘rni haqida gap boradi. Aynan shu mavzudagi maqollarni qiyosiy semantik tahlil qilish jarayonida, ayollar mavzusining ijobiy va shu bilan birga salbiy ma’noda kelishi va bu har bir millatda mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

DOI: 10.36078/1653410384

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B., O‘zbek xalq maqolari. T.: Sharq nashriyoti, 2005. 512 b.
2. **임무출** “**속담 고사성어 사진**” **대구**. **문창사**, 2012.
3. **전윤진** “**우리 말국어사진**”. **서울**. **윤미디어**, 2016
4. **최창렬** “**우리 속담 연구**”. **서울**. **일지사**, 1999.
5. **이선종**, “**한국의 속담 대백과**” **서울**. **아이템북스**, 2008.

KOREYS TILIDA MUROJAAT NOMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xujaeva Ugiloy Tagoymurotovna
Lingvistika (koreys tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. The main idea of this article is to study the topic of adjectives, one of the subtleties of Korean linguistics, their types and differences, reflecting the harmony of language and culture. In this case, the Korean word «호칭어» (adress names) is compared by studying and analyzing issues of human value and character on the basis of modern linguocultural and cognitive linguistic theory. Here are a few examples of different ways of addressing an interlocutor in Korean, and the names of the appeals are grouped in tabular form. The methodological features of the reference units are also extensively covered by several methods.

Keywords: address names, cognitive linguistics, speech etiquette, linguoculturology, etiquette units, respect category, hierarchy.

Annotatsiya. Mazkur maqolaning asosiy g‘oyasi - koreys tilshunosligining nozik qirralaridan biri bo‘lmish murojaat nomlari mavzusi, ularning turlari va o‘zaro farqli jihatlarini til va madaniyat uyg‘uvnashuvini aks ettirgan holda tadqiq etishdir. Bunda koreys tilidagi «**호칭어**» (murojaat nomlari) zamonaviy lingvomadaniy va kognitiv lingvistika nazariyasi asosida inson qadriyati va xarakteri masalalarini o‘rganish, tahlil qilish orqali taqqoslangan. Maqolada koreys tilida muloqot jarayonida suhbatdoshga murojaat etishning turfa ko‘rinishlari misollar orqali yoritilib, murojaat

 DOI: 10.36078/1653410384

nomlari esa o‘z navbatida guruhlarga ajratib joylashtirilgan. Shuningdek, murojaat birliklarining uslubiy xususiyatlari ham bir necha metodlar orqali keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: murojaat nomlari, kognitiv lingvistika, nutq etiketi, lingvokulturologiya, etiket birliklari, hurmat kategortyasi, iyerarxiya.

Muloqot jarayonida faol, doimiy qo‘llaniladigan muayyan til birliklari mavjud. Ushbu lisoniy birliklar alohida olinganda oddiy va ahamiyatsizdek tuyuladi, ammo birgalikda, umumiylikda olinganida esa ma’lum millat vakillari muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular har bir millat kishisiga bolalikdan o‘zlashib, ma’lum bo‘lib, turlicha suhbatlarda, turlicha sharoitlarda, turlicha lisoniy jarayonlarda yuzaga chiqadi. Kommunikatsiyani tiklash, uni faollashtirish, nutqiy faoliyatni me’yorida ushlab turish uchun xizmat qiladi. Bu vositalar murojaat birliklaridir[84].

Muloqot faqatgina insoniyatda mavjud bo‘lgan murakkab va nozik aloqa tizimi bo‘lmish til vositasi yordamida amalga oshirilib, bu jarayon ikki asosiy omil: «nimani» «qanday qilib?» yetkazib berish va anglatish asosiga tayanadi. Birinchisi almashinadigan ma’lumotlarning mazmunini aks ettirsa, ikkinchisida esa fikrni qaysi usulda yetkazilish masalasi ko‘ndalang turadi. Shu sababli, ifodalanadigan taklif bir xil bo‘lsa ham, suhbat jarayonidagi murojaat, intonatsiya, ton va prosodik xususiyatlar (tinglovchiga qiziqish, uni ma’qullash, tinglovchiga xayrixohlik) orqali suhbatdoshning qaysi ijtimoiy sinfga kirishini anglash mumkin. Suhbatda hamisha obyekt mavjud bo‘lib, muloqot qilishda biz obyektni chaqirish uchun murojaat nomlaridan foydalanamiz. Bunday murojaat nomlari ikkinchi tomon bilan almashinadigan birinchi lingvistik ma’lumot bo‘lganligi sababli, u muloqot jarayonida juda muhim hisoblanib keyingi suhbat oqimi ma’lum darajada qaysi murojaat birliklaridan foydalanishga bog‘liq, deb aytish mumkin.

Koreys tilshunosligida murojaat birliklarining ifodalanishini o‘rganish muhim vazifa sanaladi. Zero, koreys xalqi o‘ziga xos so‘zlashuv xulqi va muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Bu xalq madaniyatida murojaat birliklari etiket qoidalari sifatida amalga oshiriladi. Koreys tilida murojaat nomlari boshqa millat tillariga qaraganda anchayin kuchli va anchayin e’tiborni talab etadi. Koreyslar aynan murojaat birliklariga kuchli e’tibor berishadi va shu orqali milliy o‘zligini namoyon etishadi. Mana bir necha asrdirki bu millat vakillari o‘zlarining urf-odat va an’analarni saqlab keladi. Bu mamlakat azal-azaldan murojaat odobi, muloqot xulqi, kattalarni hurmat

[84] Ahmedova N. «O‘zbek tilida murojaat birliklari», II xalqaro ilmiy konfirentsiya. I-tom. Ufa.2019, 34-41b

 DOI: 10.36078/1653410384

qilish kabi oliyjanob tuyg‘ular bilan tarbiyalangan xalq hisoblanadi. Koreys madaniyatining, ayniqsa, rasmiy murojaat shakllarida hurmat belgisi kuchlibo ‘lib, shaxsning mavqeyi, mansabi, lavozimi, vazifasi, kasbkori, unvoni va yoshiga ko ‘ra darajalanish kuzatiladi.[85]

Biror kishi bilan muloqotga kirishish uchun qilinishi kerak bo‘lgan birinchi masala unga murojaat etishdir. Koreys tilida ham boshqa tillardagi singari ko‘p miqdordagi leksemalar mavjud bo‘lib odamlarga murojaat turli ko‘rinishlarda, taxallus va laqablar, nasl-nasab, ijtimoiy mavqe, lavozim va hokazolar murojaat birligi sifatida ishlatiladi. Bunda suhbatdosh bilan aloqani davom ettirish jarayonida undalma omili muhim hisoblanadi, zero biror ma’lumotni yetkazish, so‘rash, biror harakatni talqin etish uchun aynan undalma orqali murojaat etish lozim bo‘ladi. Tinglovchiga murojaat etish paytida uning yoshi, jinsi, mavqeyi, roli, jamiyatdagi psixologik va shaxsiy munosabatlari nazarga olinadi. Murojaat birliklari koreys tilini o‘rganayotgan chet ellik talabalar duch keladigan asosiy o‘rganish elementlaridan biridir. Holat va vaziyatdan kelib chiqib murojaat nomlaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish lozim. Koreyada shaxsga tegishli unvon va atamalardan foydalanib murojaat qilish ijtimoiy hayotning asosidir. Xususan, Koreya sotsial muhitida murojaat birliklaridan qay darajada foydalanishingizga qarab koreys tilini bilish darajangiz yaxshi yoki yomonligini aniqlash mumkin. Masalan, chet el fuqarosi Koreyada tasodifan avtohalokatga uchrasa va u bu holatda koreys darsliklarida o‘rgangani bo‘yicha «**당신**» «siz» etiket birligini qo‘llagan holda suhbatdoshga qarata «**당신이 잘못한 것 같은데요**» «menimcha, siz noto‘g‘ri harakat qildingiz», deya murojaat qilsa, o‘zi bilmagan tarzda holatni og‘irlashtirishi mumkin va bu vaziyatning keskinlashishiga olib keladi. «당신» «siz» murojaat birligi suhbatdoshni chaqirish uchun foydalaniladigan atama emas, aksincha bu so‘z insonni haqorat qilish, mensimaslik, pastga urish kabi ma’nolarni ifodalagani uchun undan foydalanish kishini o‘zi bilmagan holda noqulay vaziyatga solib qo‘yadi. Bu holatda suhbat boshida murojaat nomlarining noo‘rin qo‘llanilganligi sababli, suhbat muammoli tarzda yakun topishi mumkin.

[85]Usmanova Sh., Kalanova D. O‘zbek va koreys tillarida rasmiy murojaat shakllari // Lingvist. Ilmiy maqolalar to’plami. III. Toshkent: 2012. B. 162-163.

.

DOI: 10.36078/1653410384

Murojaat birlik kategoriyasi koreys mintalitetida qonun-qoida sifatida qo‘llanilib, fikrni lo‘nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutq uchun juda ham zarur bo‘lgan vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, koreys xalqining ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan murojaat birliklari bu millat hayotining har kun, har lahzasida nutqda mazmuniy go‘zallik, o‘ziga xos jilo baxsh etib kelmoqda.

Koreya, jumladan sharq mamlakatlarida murojaat madaniyatiga ta’limning alohida bir bo‘limi sifatida qaraladi. Murojaat odobi kishini tarbiya ko‘rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasi bo‘lib u insondan yuqori ahloqiy saviya va estetik bilimdonlikni talab qiladi.

Koreya O‘zbekiston bilan yaqin madaniy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy aloqalarda strategik hamkor ekanligi barchaga ayon. Bu ikki davlat madaniyat va tarixida o‘zaro o‘xshash jihatlari borligi isbotlangan bo‘lsada, koreys va o‘zbek mintaliteti bir-biridan keskin farq qilganligi, ayniqsa, O‘zbekiston tarixan rus madaniyatining kuchli ta‘sirida bo‘lganligi Koreyaga esa G‘arb madaniyati katta ta’sir ko‘rsatganligi bois bu ikki davlatning unvonlari va lavozim nomlarida ham juda katta farqni ko‘rishimiz mumkin. Ingliz, nemis, rus, fransuz kabi chet tillari O‘zbekistonda anchadan beri o‘rnanilib kelinadigan tillar sirasiga kirsa, endi bu tarkibga koreys tili ham qo‘shildi. So‘ngi yillarda koreyslarning ko‘plab kompaniya va korxonalari yurtimizda ochildi va bu jarayon hali hanuz davom etmoqda. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, suhbatlarni shakllantirish uchun koreys tilidagi murojaat nomlaridan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini rivojlantirish juda muhim masala darajasiga ko‘tarildi.

«Koreys tili izohli lug‘ati» «표준국어대사전»da murojaat so‘zlari «shaxs yoki obyektni chaqiruvchi so‘z» deb ta’riflansa [86] , «Yonsei koreys tili lug‘ati» «연세한국어사전»da « murojaat nomlari» «boshqa shaxsni chaqiradigan yoki unga ishora qiluvchi ism» bo‘lib, «ma'lum bir obyektga ishora qiladi», deb ta'riflanadi[87]. «Murojaat birliklari» - bu shaxs yoki narsaga nisbatan qo‘llaniladigan so‘zdir. Boshqa shaxsni chaqirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat etishni anglatib ikkinchi va uchinchi shaxsga qarata unga mos keladigan unvon va birliklardan foydalanishni bildiradi.

Murojaat nomlari koreys tili va madaniyatining «eng nozik nuqtasi» hamda «ijtimoiy munosabatlar modeli» deb e’tirof etiladi.

[86] **국립국어연구원.표준국어대사전.두산동아**, 1999

[87] 연세 대학교.언어정보개발연구원, 연세한국어사전,두산동아, 2006

DOI: 10.36078/1653410384

Koreys tilshunoslari murojaat birliklari atamasini ism, unvon, ikkinchi shaxs olmoshlari, qarindoshlik aloqalari va boshqa so‘zlar kabi turlarga ajratishadi.

Park Kap Su (박갑수) [88] koreys tilidagi murojaat birliklarini undov so‘zlar, ismga qo‘shiluvchi affiks, ijtimoiy o‘zlik, qarindosh-urug‘chilik aloqalari, to‘liq ism-sharif, ot birikmalari, .hududiy yashash manzillari va xorijiy o‘zlashtirilgan so‘zlar kabi turlarga ajratadi. Li Ik Sob (이익섭) [89] esa koreys tilidagi etiket birliklari tizimining murakkab ekanligini ularni olmoshlar, unvonlar va ism-sharif kabi turlarga ajratish taklifini bildirgan. Park Chong Un (박정운)[90] o‘z tadqiqotlari natijasida etiket birliklarini ism, lavozim, qarindoshlik shajarasi, olmoshlar, unvonlar, nominal so‘zlar, do‘stona chaqiriqlar kabi turlarga ajratgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar natijalariga tayangan holda olimlarning fikrlari xilma-xil ekanligini ko‘rsak-da, biroq ular orasidan umumiy to‘rt toifa: qarindoshlik shajarasi, unvon, ism-sharif va olmoshlar ishtirokida yasaladigan turlarini ko‘rib chiqamiz.

Qarindoshlik munosabatlarida murojaat	Ism orqali murojaat	Lavozim orqali murojaat	II-shaxs olmoshlari orqali murojaat
형제, 부부, 친자관계 Aka-uka, er-xotin va	Ism+**님/씨/군/양** familiya+**님/씨/군/양** ism+familiya+**님/씨/**	lavozim+**님** familiya + lavozim + **님**	**너 sen,** **너희(들)senlar,** **자네 siz,** **그대 siz,** **당신 siz,** **여러분** **do‘stlar,azizlar**

[88]**박갑수**. **국어호칭의 실상과 대책**,**국어생활 제**19**호**, **국립국어연구원**, 1989.

[89]이익섭. 사회언어학,1994

[90]**박정운**.**한국어 호칭어 체계**. **사회언어학**, 1997.

DOI: 10.36078/1653410384

boshqa yaqin qarindoshlar	**군/양/아/야**	ism+ lavozim+ **님**	**(ko‘pchilikka murojaat),** **댁-siz, 노형 keksa,** **어른 qariya,** **어르신 nuroniy**

Qarindoshlik munosabatlari (**친족 호칭어**)da qo‘llaniladigan murojaat nomlari muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalarini anglatuvchi murojaat shakllari bilan hamsuhbatni chaqirish (aka, opa, azizim, azizam, singlim, ukam, akam, amaki, xola va h. k.);

Ism orqali murojaat qilishda holatga qarab faqat ismga yoki faqat familiyaga, ayrim holatlarda esa ism+familiyaga, **님**, **씨**, **군**, **양** va boshqa suffekslar qo‘shib aytiladi.

Murojaat etiketlari orasida lavozim nomlari va II-shaxs olmoshlari orqali mujojaat qilish so‘zlari rang barangdir. Koreys tilidagi murojaat birliklarini dunyo tillariga bir so‘z bilan tarjima qilish imkonsiz. Chunki uning ma’naviy doirasi keng va turlichadir.

Aslida, murojaat qilish har xil kechib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, shuningdek hamsuhbat bilan o‘zaro munosabatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Murojaat nomlari nafaqat hurmat belgisi, balki maqsadga erishish yo‘lida muhim vosita hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka shaxsga yoki jamoaga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Biroq barcha murojaatlar axloq me’yorlariga bo‘ysungandagina ijobiy natija berishi mumkin.

Murojaat birliklari barcha tillarda mohiyatan bir xil maqsadni aks ettirsada, uni boshqa tilga ayni holatida ifodalash imkonsiz. Murojaat birliklari mohiyatida milliy xarakter, millatning o‘ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an’ana masalasi turganligi bois bir millatning murojaat birliklarini tahlil qilishda ushbu jihatlarni hisobga olmasdan turib, o‘rganish mumkin emas. Chunki murojaat birliklari millat xarakterining uzviy bir qismi bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki murojaat birliklari o‘zi yahlit bir olam. Uning ichiga kirib borgan sari jilolanib, go‘zalligini namoyon eta boshlaydi. U qaysi tilda bo‘lishidan qatiy nazar o‘zida millatning g‘ururi, xarakteri, o‘tmishi, turmush tarzi, etnik tarkibi, ahloq-odobini namoyish etadi. Ba’zan insonning birgina murojaati

DOI: 10.36078/1653410384

orqali butun boshli millatga baho berish mumkin bo‘ladi. Koreys tili aynan murojaat birliklarining rang barangligi bilan boshqa tillardan tubdan farq qilib, har bir soha, jumladan har bir kasbga murojaat etuvchi undalma mavjud. Ba’zan koreys tilidagi murojaat nomlarini boshqa tilga tarjima qilishda qiyinchilikka dush kelish holatlari uchrab turadi. Bunda so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish emas, balki unga mos keladigan ekvivalent so‘zni tanlash kerak bo‘ladi. Koreys tilida murojaat nomlarini tushunish uchun koreyscha fikrlash, koreyslar turmush tarzidan boxabar bo‘lish, ular kabi xissiyotga berilish va ularning hayotida yashab ko‘rish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmedova N. «O‘zbek tilida murojaat birliklari», II xalqaro ilmiy konfirentsiya. I-tom. Ufa.2019, 34-41b.
2. Rixsiyeva G, Usmanova Sh. Madaniyatlararo muloqot. T.: ToshDShI, 2018. -138 b
3. Usmanova Sh. Tarjimaning lingomadaniy aspektlari. Darslik. T.: ToshDShI, 2017. 256b.
4. Usmanova Sh. R. Lingvokulturologiya. Toshkent, 2019. 38b
5. Usmanova Sh., Kalanova D. O‘zbek va koreys tillarida rasmiy murojaat shakllari // Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami. III. Toshkent: 2012. B. 162-163.
6. Turdieva Kh. Comparison of Politeness in Persian and Uzbek speech // Journal of Word Art. Tashkent, 2019. №4. P. 59-66. (10.00.00; №31). http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297
7. Turdieva H. Nutqiy etiket birliklarining ilmiy nazariy asoslari va printsiplari // Sharq mash’ali. Toshkent, 2019. №3. B. 54-68. (07.00.00; №9).

국립국어연구원. **표준국어대사전**. – **서울**: **두산동아**, 1999.-7308 **쪽**

8. **박갑수**. **국어호칭의 실상과 대책**, **국어생활**. **제** 19 **호**. -**서울**: **국립국어연구원**, 1989.

9. **박정운**. **한국어 호칭어 체계**. – **서울**: **사회언어학**, 1997.

10. **연세한국어사전**. **언어정보개발연구원**. **서울**: **연세 대학교**, **두산동아**, 2006.-3050 **쪽**

11. **이익섭**. **사회언어학**. - **서울**: **미음사**, 1994.

12. **이명화**. **외국인을 위한 한국어 호칭어와 지칭어 교육 방안 연구**. – **서울**: **동국대학교 석사학위논문**, 2010.

DOI: 10.36078/1653410384

KOREYS TILINI O‘RGANUVCHILAR UCHUN KOREYS TILI MULOQOT DARAJALARI TUSHUNCHASI

Xurramova Dilorom
Lingvistika (koreys tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. The development of foreign languages, in particular Korean, in the educational institutions of our country depends on the development of the two countries on the basis of equal partnership in all spheres, the connection of languages to languages, languages to hearts. It is expedient to consider it as one of the main factors in Speech levels in Korean are more complex and require more attention than in other national languages. As a result, many foreign linguists find it difficult to use their Korean language skills. In this article, Korean language learners will take on important tasks such as the difficulty of using speech levels in the process of learning Korean, and the linguistic application of Korean speech levels.

Keywords: honorofics, Korean language, Uzbek language, speech levels, pilote speech level, formal speech level, simple speech level.

Annotatsiya. Xalqlar madaniy, ma’naviy tarafdan bir-birini boyitishlari evaziga har jihatdan rivojlanish qaror topadi.Chet tili, xususan, koreys tilining mamlakatimiz ta’lim muassasalarida o‘qitilishi shu ikkala davlatning har sohada teng sherikchilik asosida rivoj topishiga, tillarni tillarga, dillarni dillarga bog‘lashda asosiy omillardan biri deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Koreys tilida nutq darajalari boshqa millat tillariga qaraganda anchayin murakkab va anchayin e’tiborni talab etadi. Shu sababdan ko‘pchilik chet ellik tilshunos talabalar aynan koreys tilining nutq darajalarini ishlatishda chalkashliklarga duch keladi. Ushbu maqolada koreys tilini o‘rganuvchi o‘quvchilar koreys tilini o‘rganish jarayonida nutq darajalaridan foydalanishda duch keladigan qiyinchiliklar, koreys tili nutq darajasini lingvistik jihatdan tadbiq qilish kabi muhim vazifalarni o‘z zimmasiga oladi.

Kalit so‘zlar: hurmat kategoriyasi, koreys tili, o‘zbek tili, nutq darajalari, xushmuomalalik nutq darajasi, rasmiy nutq darajasi, sodda (oddiy nutq darajasi).

DOI: 10.36078/1653410384

